

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

HOTAMHONOVA NARGIZANING
« ISTIQLOL DAVRI HIKOYACHILIGIDA BADIY DETAL»

5220100 – Filologiya (o'zbek filologiyasi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar:

F.f.d.datsent: H.Karimov

ANDIJON – 2015

MUNDARIJA

Kirish.....	2
I BOB. Maqsad va g'oyani ochuvchi kalit.....	8
1-fasl. Asr boshlaridagi tarixiy sharoit va milliy uyg'onish harakati.....	8
2-fasl. Sho'rolar davri hikoyachiligiga bir nazar.....	18
II BOB. Obraz, xarakter va detal mushtarakligi.....	21
1-fasl. Istiqlool davri hikoyachiligining tamoyillari.....	21
2-fasl. Kichik janrning o'ziga xos xususiyatlari.....	35
III BOB. Adabiyotning bosh tasvir ob'yekti.....	52
1-fasl. Hikoyalarda inson ruhiyati manzaralari.....	51
2-fasl. Badiiy detalning qudrati haqqoniylikdadir.....	62
XULOSA.....	66
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	73

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, "Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir".¹ Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, ma'naviyat haqida har qancha da'vatlar, muhim nazariy fikrlar bildirilmasin, agar ularni jamiyat ongiga singdirish uchun doimiy ish olib bormasak, bu boradagi faoliyatimizni har tomonlama puxta o'ylagan, tizimli ravishda tashkil etmasak, biz ko'zlagan maqsadga erisha olmaymiz, ya'ni inson qalbiga yo'l topolmaymiz. Shuning uchun biz bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasidan boshlab, matbuot, televideniya, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, haykaltaroshlik san'atigacha, bir so'z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni xalqning barcha ma'naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur. Ayniqsa, barcha davrlarda ham g'oyat murakkab va mas'uliyatli bo'lgan bu ishlarni o'z zimmasiga olgan, eski qoliplardan voz kechib, bu sohada yangi yo'llarni ochib berayotgan, odamlarning dunyoqarashini yanada boyitish uchun tinimsiz mehnat qilayotgan fidoyi insonlarning bir qarashda ko'zga tashlanmaydigan, lekin katta qunt, bilim va tajribani talab qiladigan intilish va amaliy harakatlarni keng qo'llab quvvatlashimiz, ularning samarali natijalarga erishishi uchun har tomonlama sharoit yaratib berishimiz lozim.

Bu haqda gapirganda, shuni alohida ta'kidlash joizki, ana shu soha vakillari, ya'ni o'qituvchi va murabbiylar, yozuvchi va jurnalistlar, kino va teatr ahli, musiqachilar va rassomlar, umuman, ziyolilarimiz xalqimiz uchun yangicha voqelik bo'lmish bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida jamiyat oldidagi ma'naviy burchini chuqur his etgan holda, o'z iste'dod va mahoratini ayamadan astoydil mehnat qilmoqda.

¹I. Karimov . „Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch“. T „Ma'naviyat“, 2008, 19-bet.

Jamiyatimiz ma'naviyatini yuksaltirish bilan bog'liq jarayonlarning murakkab tomoni shundaki, bugungi kunda boshimizdan kechirayotgan ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot yo'lida uchraydigan juda ko'p muommalarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan faqat o'z kuchimiz va salohiyatimizga tayanib hal etishga to'g'ri kelmoqda. Shu maqsadda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarning amaliy natijasi o'laroq, adabiyot va san'at, madaniyat, matbuot sohasi mafkuraviy tazyiqdan butunlay xalos bo'lganligini ta'kidlab o'tish joiz. Har qanday ijod namunasi, badiiy asar sinfiy bo'lishi va qandaydir g'oyaga, kommunistik mafkura manfaatlariga xizmat qilishi kerak, degan qarashlar bugun o'tmishga aylandi. Erkin ijod uchun, milliy qadriyatlarimiz va boy ma'naviyatimizni, xalqimiz tarixini, uning bugungi sermazmun hayotini to'laqonli va haqqoniy aks ettirish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Bugungi kunda o'z hayotini ana shunday mas'uliyatli sohaga bag'ishlagan ko'plab iste'dod sohiblari yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, komil insonni tarbiyalash yo'lida munosib hissa qo'shib kelmoqda. Ayniqsa, hozirgi vaqtda kuchayib borayotgan ma'naviy tahdidlarning oldini olish, "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siridan farzandlarimizning ongu tafakkurini himoya qilishda ilmu fan va madaniyat jamoatchiligi, ijod ahlining o'rni va ro'li tobora ortmoqda.

Nega deganda, bizning milliy ruhimiz va tabiatimizga yot va begona bo'lgan ana shunday "madaniyat" namunalarini faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni ta'qiqlash bilan biror natijaga erishib bo'lmaydi. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash, ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik uchun avvalambor ezgu insoniy g'oyalar va yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlar orqali xalqimizning madaniy saviyasini yuksaltirish, boshqacha aytganda, butunjahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashishga hozir bo'lishimiz shart. Albatta, bu borada so'z san'ati bo'lgan adabiyotning o'rni beqiyosdir. Binobarin, Yurtboshimiz "Insonning, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning

insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari, deb ta'riflashimiz bejiz emas, albatta",¹ deya ta'kidlashi bejiz emas. Darhaqiqat, adabiyot qadimdan xalqimizning so'zlarining ifodachisi, doimiy hamrohi va eng yaqin maslahatgo'yi bo'lib kelgan. Shuning uchun Prezidentimiz mustaqillik yillarida yurtimizda ma'naviyatimizning g'oyat muhim va uzviy qismi bo'lgan adabiyotni rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag'batlantirishga e'tibor qaratmoqda. Natijada istiqlol yillarida adabiyotimiz sifat jihatdan o'zgarib, mazmun boyib, mavzular ko'lami jihatidan ham, janrlar nuqtai nazaridan ham rang-barang bo'lib borayotganligini alohida ta'kidlamay bo'lmaydi. Buni birgina istiqlol yillarida yaratilgan turli hikoyalar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, o'zbek adabiyoti tinimsiz o'zgarishu evrilishlar jarayonini boshdan kechirdi.

Istiqlol yillarida O.Yoqubov, Sh. Xolmirzayev, O'. Hoshimov, O'. Umarbekov, O. Muxtor, X.Do'stmuhammad, A.Dilmurod, N.Eshonqulov, N.Norqobilov, Tog'ay Murod, Erkin A'zam, T. Rustamov, A. Yo'ldashev, L. Bo'rixon, J. Ergasheva singari turli avlodga mansub ijodkorlar o'ziga xos yo'sinda qalam tebratib, milliy prozamız taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdilar. Ustozlari izidan borgan Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, Mehriniso Qurbonova, Nargiza G'ulomova, Nargiza O'sanboyeva, Uyg'un Ro'ziyev kabi ijodkorlar ham kichik janrlarda katta yutuqlarga erishdilar. Ya'ni ular kitobxonlarga manzur bo'ladigan anchagina yaxshi hikoyalar yaratishdi. Bu hikoyalar mavzuning dolzarbligi, obrazlarning esda qolarli qilib tasvirlaganligi va badiiy detallarning o'ziga xos qo'llanilishi bilan alohida ajralib turadi. Istiqlol davrida adabiyotimizda ro'y bergan bu ijobiy o'zgarishlar haqida ko'plab ilmiy tadqiqotlar ishlari yaratildi. Adabiyotshunosligimizdagi bir qator dolzarb va yechimini kutayotgan masalalar yuzasidan ko'plab doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi, ilmiy-nazariy qo'llanmalar yaratildi. Biroq istiqlol davri hikoyachiligida badiiy detal masalasi

¹ I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008, 133-134betlar.

hali deyarli o'rganilgani yo'q. Bizning ishimizni dolzarbligini mana shu masala belgilaydi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Badiiy detal haqida gap ketganda, M.Shcheglovning “Новый мир” jurnalining 1957-yil 1–sonida bosilgan “Detallar haqqoniyligi” maqolasi Sankt-Peterburglik adabiyotshunos E.S. Dobinning “Qahramon. Syujet. Detal”, S.Petrovning “Ijod sirlari”, belorus tanqidchisi R. Shkrabanning “Xarakter. Stil. Detal” nomli kitoblari, yozuvchilardan S.Antonovning “Detal”, Yu. Nagibinning “Hikoyada detal” maqolalari va boshqa tadqiqotlarni, taniqli adabiyotshunos va tanqidchilarning detal haqida bildirgan qimmatbaho mulohazalarini alohida qayd etish mumkin.

O'zbek adabiyotshunoslaridan I. Sultonov, H. Yoqubov, L. Qayumov, M. Qo'shjonov, S. Mamajonov, O. Sharafiddinov, U.Normatov, P. Qodirov, M. Sultonova, N. Vladimirova, I. G'afurov, P.Shermuhammedov va boshqalarning asarlarida badiiy detal masalalari tadqiq etilgan. Detalning rolini har tomonlama tadqiq etib boradigan jiddiy tadqiqotlar yaratish adabiyotshunosligimizning muhim vazifalaridandir.

Ishning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi istiqlool davri hikoyachiligida badiiy detal masalasini tadqiq etishdan iboratdir.

Ishda quyidagi vazifalarni hal qilish ko'zda tutilgan:

- detalning hikoyalarda tutgan o'rnini sharxlash;
- detalning tur va xillarini tasniflash;
- xarakterli detallarning yozuvchilar ijodida tutgan o'rni va ahamiyatini batafsil yoritish;
- obraz, xarakter va badiiy detal mushtarakligini misollar asosida tahlil qilish;
- istiqlool davri hikoyachiligining asosiy tamoyillari va ularda badiiy detal qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

- hikoyalarda inson ruhiyati manzaralarini tasvirlashda badiiy detalni o'rnini batafsil yoritish;

- badiiy detalning qudrati uning haqqoniyligida ekanligini istiqlool davri hikoyalari misolida sharhlab berish va umumiy xulosalar chiqarish.

Ishning ob'yekti va predmeti. Tadqiqot ishi Shukur Xolmirzayev, O'lmas Umarbekov, Uyg'un Ro'ziyev, Erkin A'zam, Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, Jamila Ergasheva, Nargiza O'sanboyeva, Safar Kattaboyev kabi ijodkorlarning hikoyalari asosida yaratildi.

Tadqiqot metodlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ma'naviy qadriyatlar, milliy g'oya va mafkura hamda mafkuraga doir asarlaridagi nazariy qarashlar mazkur tadqiqot ishining metodologik asosini tashkil etdi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishi V. Dal, S.Antonov, E.S.Dobin, Klavdiya Rojdestvenskaya, I. Rashka, S.Peterov, R.Shkraba, Yu.Nagibi, I. Sultonov, X. Yoqubov, L.Qayumov, M.Qo'shjonov, S.Mamajonov, O.Sharafiddinov, U. Normatov, N. Vladimirova, M. Sultonova, I. G'afurov kabi olim va yozuvchilarning ilmiy-nazariy qarashlariga asoslanib yozildi.

Ishning ilmiy yangiligi va ahamiyati. Ishimizning yangiligi istiqlool davri hikoyachiligi va unda badiiy detalning qo'llanishi bilan bog'liq omillar bilan belgilanadi. Ishimizda, shuningdek, sho'ro davri adabiyoti va istiqlool davri adabiyoti hikoyachiligida qo'llanilgan badiiy detallar qiyoslab o'rganildi.

O'zbek hikoyachiligining darg'alari bo'lgan Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad kabi so'z sa'natkorlarining hikoyalari tahlil etildi. Shuningdek, badiiy detallarning tur va xillariga tasnif berildi. Bular tashqi detallar, ichki detallar hamda nutq detallaridir.

Bundan tashqari ishimizda badiiy detallar yordamida obraz va xarakter yaratishda detaldan foydalanish masalalariga e'tibor qaratildi. Ular yuzasidan xulosalar chiqarildi.

Istiqlol davri hikoyalarida badiiy detal qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishga qaratilgan ushbu tadqiqotimizdagi asosiy xulosalar va umumlashmalar badiiy detal mavzusini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda tahlilga tortilgan hikoyalar, xulosalar va nazariy fikr-mulohazalarni oliy o'quv yurtlarida istiqlool davri hikoyachiligini o'rganish, maktab, akademik litsey va kollejlarda o'zbek adabiyoti fanini o'rganish, dars mashg'ulotlari olib borish, badiiy detal masalalariga bag'ishlangan qo'llanmalar, ma'ruza matnlari va majmualar yaratish, shuningdek, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, O'lmas Umarbekovlar ijodini o'rganish, istiqlool yillari prozasiga munosib hissa qo'shish niyatida ijod qilayotgan Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, Uyg'un Ro'ziyev, Nargiza O'sanboyeva kabi hikoyanavislar ijodini o'rganishda qo'shimcha manbaa sifatida foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I BOB. MAQSAD VA G'OYANI OCHUVCHI KALIT

I Fasl. Asr boshlaridagi tarixiy sharoit va milliy uyg'onish harakati

Bir zamonlar yer kurrasidagi eng qudratli bo'lgan Amir Temur saltanati XIX asrning o'rtalariga kelib, o'zining harbiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy salohiyatini mutlaqo yo'qotgan, uch kichik xonlikka ajralgan va azbaroyi holsizlanganidan rus qo'shinlari tomonidan oson-garov bosib olingan edi. Mustamlaka qo'shinlari orasida yashayotgan Turkiston xalqlari bir tomondan, mustamlakachi chor hokimiyati, ikkinchi tomondan, mahalliy amaldorlar nazorati ostida yashadi. Ana shu ikki tomonlama suquv Turkiston xalqlarining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, ma'rifiy, madaniy va ma'naviy hayotiga ham mislsiz darajada katta salbiy ta'sir o'tkazdi. Nafaqat chor hokimiyati, balki mahalliy davlat idorasi ham xalqning ijtimoiy ongi oshishi, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'lishi, boshqa xalqlar va mamlakatlar hayoti haqida tasavvurga ega bo'lishidan manfaatdor bo'lmagan. Shuning uchun ham bir tomondan, chor hokimiyati, ikkinchi tomondan, mahalliy davlat idorasi ham xalqning ijtimoiy va madaniy hayotini nurlantirishi mumkin bo'lgan har qanday tadbirlarga qarshi tish-tirnog'i bilan kurashgan.

Rossiyaning Sharqdagi siyosatiga muayyan darajada ta'sir o'tkazgan kishilardan biri N. I Ilminskiy maslakdoshi Pobedonosevga yozgan maktublarining birida bunday fikrni olg'a surgan edi:

“Odamlardan va o'ta bilimli o'qituvchilardan ehtiyot bo'linglar. O'ta odobli mukkasi bilan dinga berilgan oddiy odamlarga qaraganda ularni juda qattiq kuzatuv ostiga olinglar”. Ilminskiyning ana shunday “dono” maslahatiga amal qilgan Rossiya ichki ishlar politsiyasi departamenti Turkistondagi har bir ma'rifatli kishini qattiq nazorat ostiga olibgina qolmay, masjid va madrasalarda, kitob bozorlarida xorijiy gazeta va jurnallarning bor-yo'qligi bilan qiziqdi, taraqqiyparvar nashrlarning Turkistonga kirib kelmasligi uchun barcha choralarni ko'rdi: bu bilangina kifoyalanmay, mahalliy ziyolilarni ikki

qanotga ajratib yuborib, ulomolarni jadidlarga, jadidlarni esa ulomolarga qarshi qo'ydi. Din arboblarni o'ta mutassiblashishiga shart-sharoitlar yaratib, ular ixtiyoridagi masjid va madrasalarning ko'payishi shu orqali ta'sir doiralarining kengayishiga imkoniyat yaratdi. Ana shu tarzda olimlar va o'ta bilimli o'qituvchilar siyosiy nazorat ostiga olinib, o'ta odobli va mukkasi bilan dinga berilgan oddiy odamlarning Turkistonning ijtimoiy va ma'naviy hayotidagi mavqeyi oshib bordi. Ayni paytda chor hokimiyati mahalliy ma'muriyatning ijozati va ulomolarning loqaydligi yohud jur'atsizligi tufayli Turkistonda fohishaxonalar va ichkilik sotuvchi do'konlarni ochdi. Bu har ikkala razolat o'choqlari ajdaho singari mahalliy xalqni sekin-asta o'z domiga torta boshladi. Ana shunday tarixiy sharoitda Markaziy Osiyoni bosib olgan chor hokimiyati Turkistonning haqiqiy xo'jayinlariga aylandi. Darvoqe, "Novoye vremya" jurnalining 1908-yilgi sonlaridan birida bosilgan maqolada xuddi shunday – "Turkistonning xojayinlari" deb nomlangan. Unda jumladan shunday deyilgan: "Bizning so'ngi ikki generalisiz Cherniyayev bilan Skobelov issiq iqlimda, janubiy tog'larning etaklarida rus qabilasining hukmdorligini mustahkamlash uchun O'rta Osiyoda arslondek kurashdi. Ular dahosi va jasorati bilan qadimgi davrda aytilganidek, "Rus tojining qimmatbaho durdonalaridan biri" Turkiston ishg'ol etildi".¹

Turkistonni "rus tojining qimmatbaho durdonalaridan biri" deb atagan kimsalar uchun, birinchi navbatda, boylik kerak edi. Ular Turkistonni oltin konlariga ega o'lka, deb bilganlar. Keyinchalik, Turkistonning faqat yerosti xazinalariga emas, balki yerusti boylikariga ham ega ekanliklarini bilganlaridan keyin ular minglab mujiklarni Ichki Rossiyadan ko'chirib kelganlar. "Kelajak muhojir rus qishloqlari yerli xalq kishilaridan ko'ra boyroq bo'lishi kerak" degan shior shu davrda rus mustamlakachilik siyosatining ustuvor yo'nalishini belgilab berdi. Shu shiorga amal qilgan mustamlakachilar mahalliy xalqqa tegishli serhosil yerlarni tortib olib, ularni kelgindi mujiklarga bo'lib berdilar.

¹ N. Karimov. XX asr adabiyoti manzaralari. T., "O'zbekiston", 2008, 12-bet.

Shu tarzda 1906-1913-yillarda Turkistonda 116 ta rus qishlog'i vujudga keldi. Bu qishloqlarni tashkil etgan mujiklarni 36,7 foizi hech qanday mol- mulksiz, 60,9 foizi esa hatto sariq chaqasiz kelgan edi. Chor hokimiyati ana shu mujiklarning boshlarini silab, mahalliy xalqni ezish va feodal qaloqlik sharoitida ushlab turishda ular hukumatning ishonchli suyanchiqlari bo'lishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratdi. Natijada xalqning iqtisodi, ijtimoiy, madaniy ahvoli chidab bo'lmas darajada mushkullashdi.

Turkiston xalqlarining shu davrdagi hayoti, saviyasi, mentalitetga xos salbiy xislatlar, illatlar to'g'risida Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi, Fitratning "Munozara"si, Cho'lponning "Qurboni jaholat", "Do'xtir Muhammadyor" hikoyalari va boshqa o'nlab jadid adabiyoti namunalarini o'qishni o'zi kifoya. Chunonchi, yevropaliklar va o'zbeklar o'rtasidagi farqni tasvirlashga bag'ishlangan bu she'rida Tavallo shunday yozgan:

Yevropa ahli, siz quloq solingiz,
Biz hunarlar yozib topushtiramiz.
Kelturing zanburak, qurol necha xil,
Bizni sopqon ila otushtiramiz.
Aftomabil, arobangiz qayda,
Ho'qand, arba bilan chopushturamiz.
Biz bilurmiz, siz to'g'ri so'zni quli,
Lek biz yolg'onlar qotushtiramiz.
Do'stni dushman etub, solib ig'vo,
Gap toshub o'rta choqushturamiz.

"Qo'lda bid'at maromnomasi bor" bunday kinoya va piching zahri sochilib urgan satrlarni o'qir ekansiz, asr boshlaridagi Turkiston hayoti ko'z oldingizda yaqqol gavdalanadi.

Cho'lpon "Do'xtir Muhammadyor" hikoyasida shu ayanchli hayot manzaralarini yanada aniq va haqqoniy tasvirlab, yozgan edi: "Erta bilan soat sakkizda istansag'a chiqub, poezdni kutib turdi. Nihoyat, XX asr madaniyati keldi, ajdar kabi pishillab, har tarafga suv sochub Muhammadyorni vatanidan ayirmoqchi edi. Istansada bir g'arib manzara ediki, Muhammadyorning ko'nglini buzmoqqa boshladi: bir musulmon hurjun yo'qotgan, biri boraturg'on istansiyanini nomini bilamay boshqa istansag'a bilet olib qo'yg'on, va shunga o'xshash daxshatli manzaralar oldida Muhammadyor qotib qoldi. Nihoyat ikkinchi zvanok urilganda chiqib uchinchi klassdan joy topib o'tirdi. Haligi qo'rqinchli manzaralar bunda andin ham ziyoda hukm surmoqda edi: bir musulmon bir birisi bilan urushib burni qonagan, bir musulmonni poezd ma'murlari tutib olib uradurlar. Muhammadyor chiday olmadi. Poezdning tashqarisiga chiqib, tikka turib istansiyanini tomosha qila boshladi. Bir Armani Kavkazning qorong'u go'shalaridan kelib istansiyada do'kon ochib, boy bo'lib ikki o'g'lini hukumat maktablarida tarbiya qilmakda. Yerli musulmonlar esa topgan pullarini to'yga, janozaga sarf qilub, faqrlilikda xorlikda qolmoqda edilar".¹

Asr boshlaridagi turmushning bunday manzaralarini o'z ko'zlari bilan ko'rgan ziyolilar "Tarjimon", "Vaqt" singari gazetalarni o'qiganlaridan keyin ularni bartaraf etish yo'llarini qidirdilar. Ismoil Gaspirinskiy o'z gazetasi orqali Turkistonda yangi davr g'oyalarini kelishiga imkon tug'diribgina qolmay, 1893-yili o'zi ham Samarqand va Buxoroga kelib M.Behbudiy, A. Shakuriy singari millatning peshqadam kishilari bilan tanishdi. Hatto, Buxoroda "usuli jaded" maktabini ochdi. Samarqand, Qo'qon, Toshkent, Andijon singari shaharlarda ham jadid maktabi tashkil etila boshladi. Sanoqli bo'lsa-da, dastlabki jadidlar paydo bo'ldi. Lekin bu maktablar va ularni tashkil etgan jadidlarning milliy shakllanishi oson kechmadi.

¹ N. Karimov. XX asr adabiyoti manzaralari. T., "O'zbekiston", 2008, 14-15-betlar.

Chor Rossiyasining hufyonlaridan biri Eron va Turkiyadagi milliy ozodlik harakatlari hamda 1905-yil rus inqilobidan keyingi Buxoro ahli to'g'risida bunday ma'lumotni bergan: "Buxoroda madrasalar ko'p bo'lsa-da, xalq ortiq nodon, siyosiy degan gaplar hech ham yo'q. Rossiya inqilobi haqida hech narsa anglamaydurlar. Nima bo'lsa-da, Buxoroda o'zgarish ehtomoli uzoqdur".

Shu hufiya Buxoro ahlining siyosiy saviyasi to'g'risida mulohaza yuritib yana bunday yozgan: "Buxoro bozorlarida uchrasha turg'on qishloqilardan durust ma'lumot ololmadim. Sababi esa, ular birinchidan, shaharga ish bilangina kelganliklaridan so'zlashub o'lturushga vaqtlari yo'qdur. Ikkinchidan, siyosatdan gapirishga amrning hufiyalari nihoyatda ko'p bo'lib, siyosiy bir gap eshitsalar, ushlab darrov zindonga soladilar.

So'nggi yillarda ayrim tarixchi va jurnalistlar XX asr boshlaridagi tarixiy vaziyatning ana shunday noxush manzaraga ega bo'lishida amr va xonlarning ham aybi katta ekanliklarini e'tibordan soqit qilib, ular faoliyatiga ijobiy baho berish va ularni xalq dardi bilan yashagan kishilar qilib tasvirlashga urinmoqdalar. Bu mutlaqo noto'g'ri qarashdir. O'zlariga tegishli hududda mustabid tuzumni o'rnatgan bu davlat arboblari bu xalqni mustamlakachilar bilan birga ezib, hur fikrli kishilarni ta'qib va tazyiq etib kelganlar. Ana shunday vaziyatda jadidlarning o'quv tizimini islih qilish, yangi tipdagi maktablarni ochish, xalqni ma'rifatlashtirishga qaratilgan dastur bilan chiqishlari, jadid maktabi, jadid adabiyoti va teatriga poydevor qo'yishlari ularning ulkan fuqorolik jasoratlari edi.

Jadidlar paydo bo'lgan ilk kunlardan boshlab ular ham chor hokimiyatini, ham mahalliy hukmdorlarning qarshiliklariga duch keldilar. Binobarin, ular xalqni shu ikki zulm o'chog'idan, shu ikki qoloqlik botqog'idan xalos etmoqchi bo'ldilar. Abdulla Badriy "Yosh Buxoroliklar kimlar?" risolasida jadidlarni ko'zda tutib, bunday yozgan edi: onlarning fikriy xayollari va muddaolari biz, bechora va qashshoqlarni g'urbatdan ya'ni amirlar, beklar va

boylarning zulmlaridan ozod qilmoq va bizlarning rohatimiz va tinchligimiz uchun harakat va taraddud qilmoqdir.

Dastlab, asosan ma'rifiy vazifalarni amalga oshirish maqsadi bilangina maydonga kelgan jadidlarning birlashishi va keng qanot yozishida o'zbek jadidchilik harakatining yo'l boshchisi Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmatlari beqiyosdir. U kelajakda milliy bosmaxona va nashryotni tashkil etish, qo'shni xalqlar hayoti, jumladan maktab va maorif bilan tanishish, bu mamlakatlardagi taraqqiyparvar kuchlarning tajribalarini o'rganish va o'zbek jadidlarining xalqaro aloqalarini izga solish uchun Rossiyaning bir qancha sanoat markazlariga va Yaqin Sharq mamlakatlariga bordi. Buxoroda tashkil etilgan "Tarbiyayi atfol" jamiyatining sa'y-harakati bilan Fitrat ikki birodari bilan birga Turkiyaga tehsil olgani bordi. U Turkiyada bo'lganida "Ittihad va taraqqiy" tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi va hatto Buxoroga qaytib kelganidan keyin ham shu tashkilot bilan aloqasini uzmay, islomparastlik yo'nalishidagi gazetalarga qatnashib turdi. Fitratning yosh usmonlilar harakati bilan yaqinlashib, Buxoro amirligidagi siyosiy, ijtimoiy madaniy muhitdan keskin farq qiluvchi Turkiyadagi milliy ozodlik harakati bilan yaqindan tanishishi uning o'zbek jadidchiligi harakati uchun dasturiy ahamiyatga ega bo'lgan "Munozara", "Hind sayyohi bayonoti" singari asarlarini yozishga imkon yaratdi. Turkiyada chop etilib, Buxoroda yashirin ravishda tarqatilgan bu asarlar buxorolik yoshlar dunyoqarashida inqilobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ana shu tariqa jadidlar tajriba orttirib va saflarini tobora kengaytirib bordilar.

Shunday qilib, jadidchilik XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda hukm surgan favqulodda qoloq iqtisodiy va madaniy sharoitda yashagan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o'tkazish hamda pirovatdida erk va hurriyat g'oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan harakat sifatida tarixiy vaziyat taqozosi bilan vujudga kelgan. Bu harakat o'zining shakllanish yo'lini bosib o'tar ekan, asr

boshlaridan 1917-yil fevral inqilobiga qadar bo'lgan birinchi bosqichda nafaqat ma'rifiy, balki ijtimoiy harakat sifatida ham uzil-kesil rasmiylashtirdi. Fevral inqilobining ro'y berishi va chor hokimiyatining falajlanishi bilan u o'zining provard siyosiy maqsadi-mustaqil davlatni barpo etish g'oyasini amalga oshirishga kirishdi. Lekin bu harakatning kuchli va birlashgan partiya yo biror tashkilotga ega bo'lmaganligi hamda xalq ommasini hali uyg'ota olmaganligi sababli uning mustaqil o'zbek davlatini barpo etish orzusi ro'yobga chiqmadi. Hali oyoqqa turib ulgurmagan yosh sovet davlati Turkiston Muxtoriyat hukumatini g'o'daklik paytidayoq majaqlab tashladi. Jadidchilik harakati va jadidlarning orzusi mustaqil Turkiston halqlari hayotini tubdan o'zgartirishdan iborat edi. XIX asr o'zbek adabiyoti poydevoriga dastlabki g'ishtlardan birini jadidchilik harakatining qatnashchilari bo'lgan mahmudxo'ja Behbudiy va Fitratlar qo'ygan degan bo'lsak, yanglishmagan bo'lamiz.

O'tgan asr boshlarida Cho'lpon Andijonda jaded shoiri sifatida tanilgan edi. Cho'lponning ulug'vorligi shundaki, u XIX asr o'zbek adabiyotini yangi bir pog'onaga ko'tarib, o'zbek adabiy tilining shakllanishi va ravnaq topishiga ulkan hissa qo'shibgina qolmay, xalqni Vatan, millat, istiqlol tushunchalarini teran ma'no kasb etishiga ham mislsiz darajada katta ta'sir ko'rsatdi. Boshqacha qilib aytganda, u xalqda Hurriyat tuyg'usini uyg'otdi unning ko'zidagi g'aflat pardasini olib tashladi. Vatanga muhabbat, Kelajakka ishonch hislarini tarbiyaladi. Uning fuqarolik jasorati huddi shundadir. Shu o'rinda biz Cho'lponning "Ozod turk bayrami" she'rini keltirib o'tmoqchimiz. 1917- yil 26-29-noyabrda Qo'qonda bo'lib o'tgan umummusulmonlar qurultoyi Turkiston Muxtoriyat hukumatining tashkil topganini e'lon qilgan. Uzoq tarixiy davr mobaynida ijtimoiy tarqoqlik va mustamlakachilik sharoitida yashagan, shu tufayli honavayron bo'lgan o'lkada Muxtoriyat hukumatining barpo etilishi taraqqiyparvar kishilar tomonidan katta quvonch va shodlik bilan kutib olingan. Turkiston xalqlarining taqdiri bilan kuyingan Cho'lpon birinchi bo'lib Muxtoriyatni olqishlovchi "Ozod turk bayrami" she'rini yozgan. Muxtoriyatning

e'lon qilinishiga bag'ishlangan namoyishda esa otashin nutq so'zlab, nutqi orasida badiha yo'li bilan "Oллоhu akbar" she'rini aytgan va bu she'rning har satridan keyin namoyish ahli "Oллоhu akbar" she'rlari bilan shoirga jo'rlik qilgan.

"Ozod turk bayrami" she'ri varaqa shaklida tarqatilib, Muxtoriyatning madhiyasi sifatida xalq orasida ijro etilgan. Mazkur varaqalardan biri qo'qonlik taniqli adabiyotshunos Ahmadjon Mamajonov tomonidan topilgan va u bu she'rni ilk bor e'lon qilish huquqini professor Naim Karimovga bergan. She'r "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 1991- yil 20-sentabr sonida tegishli izoh bilan e'lon qilingan:

Cho'lpon

Ozod turk bayrami

Ko'z oching boqing har yon!

Qardoshlar qanday zamon!

Shodlikka to'ldi jahon!

Fido bu kunlarga jon!

Naqorot:

Turkistonlik - shonimiz, turonlik – unvonimiz,

Vatan- bizning jonimiz, fido o'lsin qonimiz!

Bizlar temir jonlimiz!

Shavkatlimiz shonlimiz!

Nomusli vijdonlimiz!

Qaynagan turk jonlimiz!

Naqorot:

Bo'ldi kenglik zo'rlik yo'q,

Berildi bizga huquq.

Tarraqiyga yo'l ochuq,

Jaholatga yo'l yopuq!

Naqorot:

Muxtoriyat olindi,

Ishlar yo'lga solindu,

Milliy marshlar chalindi,

Dushman o'rtansun endi!

Naqorot:

Shodlik, xursandlik chog'lar,

Ketsun yurakdan dog'lar,

Vatan bog'indin zog'lar!

Selkullasun bog'lar!

Naqorot:

Hurriyat bayrog'imiz,

Adolat- o'rtog'imiz,

Xursand bo'lgan chog'imiz

Mevalansun bog'imiz!

Naqorot:

Turk beshigi Turkiston!

Yeri oltun , tog'lari kon!

Bolalari qahramon!

Vatan uchun berar jon!

Naqorot:

Turkistonlik shonimiz, turonlik – ung'onimiz,

Vatan- bizning jinimiz, fido o'lsun qonimiz.¹

Biz Cho'lponning ushbu she'rini bejiz misol keltirmadik. Zero, agar Cho'lpon ayovsiz qatog'on qurboni bo'lmaganda, uning iste'dodi yanada yorqin porlagan, Cho'lponning o'zi esa o'zbek adabiyotini yangi-yangi asarlar, jumladan, betakror va g'o'zal hikoyalar hikoyalar bilan ham boyitgan bo'lardi. Bugun esa yurtimiz Cho'lponu, Fitratlar orzu qilgan mustaqillikka erishdi. Yurtimiz uzra hurriyat bayrog'i hilpirab turibdi. Cho'lpon an'analariga sodiq qolgan ijodkorlarimiz esa O'zbekistonimizning shon- shuhratini olamga taratadigan, yoshlarimizni elim deb, yurtim deb yonib yashashga chorlovchi asarlar yaratish yo'lida tinmay izlanmoqdalar.

¹ N. Karimov. XX asr adabiyoti manzaralari. T., "O'zbekiston", 2008, 393-394-betlar.

II-fasl. Sho'rolar davri hikoyachiligiga bir nazar

O'zbek hikoyanavisligi o'zining ma'lum tarixiga ega. XIX asr boshlarida shakllana boshlagan hikoya janri o'zbek adabiyotida roman, she'r va poema janrlari kabi mustaqil o'rinlardan birini egalladi va boshqa janrlar qatori kitobxonlar ommasi uchun mashhur yozuvchilar sulolasini yetkazib berdi. Hikoya janrining taraqqiyoti shu vaqtga qadar o'zbek adabiyoti uchun noma'lum bo'lgan yangi shakl va badiiy priyomlarni talab qildi. Yozuvchilar turli-tuman yo'lni bosib o'tdilar va ularning bu sohadagi izlanishlari xilma-xil bo'ldi: ayrim yozuvchilarimiz hikoyanavislikka felyeton va pamflet orqali keldilar, ayrimlari bevosita folklorga murojat etdilar. Ko'pchilik o'zbek yozuvchilari esa jahon va mumtoz rus yozuvchilarining ijodiy merosini chuqur o'rganish va o'zlashtirish orqali hikoya san'atini egallay boshladilar.

Hikoyanavislarning an'alarini o'rganish ularga taqlid qilishda ulardagi priyomlarni mexanistik ravishda qo'llashda emas, balki shu priyomlarni ijodiy tushunishda, chuqur tahlil qilishda, bu qiyin janrning o'ziga xos tomonlarini anglab yetish va ongli ijodiy o'rganishda ko'rinadi. "Shunday davr ham bo'ldiki, bunda hikoyanavislik mustaqil janr sifatida shakllanib yetmasdan, felyeton, pamflet ocherk va hatto katta maqolalar bilan qo'shilgan holda yashadi".¹

20-yillar o'zbek adabiyoti tarixida ijodiy izlanish yillari edi. Bu davrda asosan yo ocherknamo, yo felyetonga yaqin turuvchi satirik hikoyalar vujudga keldi. Bu vaqtda Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, G'ayratilar samarali ijod qildilar.

Birinchi o'zbek hikoyanavislari ayni vaqtda jurnalist ham, muxbir va tarjimon ham edilar. Masalan, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhorlar ko'pgina gazeta va jurnallarda ishlardilar. Bu narsa ularning yangi, muhim hayotiy masalalarini ko'tarib chiqishlariga, davr sadosini aks ettirishga yordam ko'rsatdi, ularni yangi-yangi asarlar yozishga ilhomlantirdi.

¹ Н.В. Владимирова, М. Сultonova. О'zbek hikoyanavisligining ba'zi masalalari/ Zamonaviylik va badiiy mahorat. T., Fan, 1961, 61-bet.

20-yillar oxirida G'afur G'ulomning "Kulgu hikoyalar", "Hikoyalar" to'plamiga kirgan 30 dan ortiq hikoyalari chop etildi. Bu hikoyalar asosini satira va yumor tashkil etardi. G'afur G'ulomning bu davrda yozgan hikoyalarida muallif nomidan /hikoyachi nomidan/ gapirish ustun turadi. Bu G'afur G'ulomning xalq og'zaki ijodini, hazil–askiyani chuqur bilganidan, folklor asarlariga xos bo'lgan xalqchilik usuli bilan juda yaqin tanish bo'lganligidan dalolat beradi.

Abdulla Qahhor hikoyalarida sarkazm darajasiga borib yetuvchi satiraga ko'proq moyillik sezilib turadi. 30-yillarga kelib o'zbek hikoyanavisligida inson obrazini yaratishga urinish kuchaydi. Shu bilan birga hikoyanavislar qatoriga yangi nomlar kirib kela boshladi. 30-yillar boshlarida adiba Oydin Sobirova o'z hikoyalari bilan kitobxonlarga tanila boshladi. Oydinning "Hazil emish", "Yamoqchi ko'chdi" kabi hikoyalari o'sha davr mahsulidir. Oydinning "Chaqaloqqa chakmoncha", "Sadag'ang bo'lay komandir" hikoyalari uning mahorati charxlanib borganidan dalolat beradi.

30-yillarda Gogol, Chexov, Gorkiy, Korolenko, Kuprin va boshqa yozuvchilarning asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi. Tarjima qilish jarayonida o'zbek yozuvchilari bu yozuvchilarning ijodiy laboratoriyasiga kirib bordilar, ular ijodidagi eng nozik muhim chizgilarni o'rgandilar.

Abdulla Qahhorning bu haqdagi fikri xarakterlidir. "Gogol asarlarini o'qiy boshlaganimdan keyin, – deb yozadi u, - uzoq vaqt "jiddiy" hikoya yozolmay yurdim. Nihoyat "Boshsiz odam" degan bir hikoya yozdim. Bunda o'zim "xolis" turib, o'sha vaqtdagi hayot lavhalaridan birini ko'rsatishga va birinchi marta odamning xarakteriga qo'l urishga harakat qilgan edim".¹

Ikkinchi jahon urushi davrida hikoyachilik yanada rivojlandi. Hikoyanavislik janrida bu davrda Abdulla Qahhor, Oydin, Said Ahmad singari ijodkorlarning ijodida birmuncha olg'a siljishlar bo'ldi. Urush davri ishtirokchilari va front

¹ A. Qahhor. Usta san'atkor. "Sharq yulduzi", 1952, 3-son, 45-bet.

orti mehnatchilarining ishlari hikoyalarning asosiy mazmunini tashkil etdi. Abdulla Qahhorning “Asrorbobo”, “Xotinlar”, “Ko’k konvert”, “Kampirlar sim qoqdi”, Oydinning “Iroda”, “Chin muhabbat”, “Farhodlar”, “Shiringa maktub”, Said Ahmadning “Maston bibi”, “Qo’shiq” hikoyalari shu davrda yaratilgan.

Abdulla Qahhorning “Kampirlar sim qoqdi” hikoyasida fashizm bilan kurashayotgan o’z o’g’illari va nevaralariga o’z mehnati bilan yordam berishga intilgan, vatanparvar kampirlarning qahramonligi juda ta’sirchan qilib berilgan. Kampirlar qurt tutuvchilar brigadasi tuzib, rejani orttirib bajarishga intiladilar. “Asrorbobo” hikoyasida o’z o’g’lining vafot etganligi haqidagi habarni bir-biridan yashirgan Asrorbobo va xotininig obrazi juda yorqin, jonli ta’sirchan tasvirlangan. Ular o’zlarining g’am-g’ussasini yengib, foydali ish qilishga, ijtimoiy ishga o’z hissalarini qo’shishga harakat qiladilar.

Hikoyanavislik urushdan keying davrda birinchi davrga ko’tarilib, prozaning ilg’or janrlaridan bo’lib qoladi, hikoyanavislar qatoriga yangi nomlar kelib qo’shiladi.

O’zbek adabiyotida hikoya janrini rivojlantirishga G’afur G’ulom bilan Abdulla Qahhorning xizmati katta, ularning mahorati puxta. Ularning hikoyalaridagi har bir mavzu yangi va zamonaviydir. G’afur G’ulomning “Xiyilayi Sha’riy”, “Haji qabul bo’ldi”, Abdulla Qahhorning “O’g’ri”, “Bemor”, “Anor”, “Mayiz yemagan xotin”, “Jonfig’on” kabi hikoyalari hozirgacha ham o’quvchilarning sevimli asari bo’lib qolmoqda. Adabiyotga kirib kelgan Said Ahmad va Saida Zununova, Shuhrat va Rahmat Fayziy, Yoqubjon Shukurov va Hakim Nazir kabi yosh yozuvchilar yangi-yangi zamonaviy hikoyalarning mualliflari sifatida tanildilar.

Urush davridagi kishilarimizning eng yaxshi fazilatlari namoyon bo’lgan davr haqidagi asarlar to’lqinlanib o’qiladi. Bu mavzu eskirmaydi. Agar urush yillari haqidagi hikoya qalb va harorat bilan yozilmasa, u quruq, zerikarli va foydasiz bo’lib qoladi. Badiiy detalning hikoyada katta rol o’ynashini ko’rsatib

o'tishga hojat yo'q. Qahramonning kechinmasini tushinishda uning ahvolini uzundan-uzoq chizish uchun shunday muhim detalni topa olish va tanlay olishi kerak. Shu munosabat bilan Oydinning "Do'ndiqdan ham yosh ekan" hikoyasidagi bir misol diqqatga sazovordir.

Ruzvonni hali kichkina qiz bola vaqtidayoq erga berishgan edi. Shu kuni uni kuyovnikiga olib ketishlari kerak edi. U o'zicha uni pustakdan ajratib olmasalar, uni hech yerga olib ketolmaydilar deb o'ylab pustakka mahkam yopishib oladi. Biroq uni pustak-mustak bilan ko'tarib aravaga soldilar. Bu yerda bo'lib o'tgan fojiani boshqa hech qanday so'z bilan bilish mumkin emas. Badiiy detalni topa bilmaslik yoki arzimagan narsani haddan tashqari bo'rttirib yuborish yozuvchi niyatini tasdiqlamay qo'yishi va voqeani sun'iiylashtirib yuborishi mumkin. Detal tanlash asar qimmatini his etish va ayniqsa inson psixologiyasini chuqur bilishda katta ahamiyatga ega.

Said Ahmadning "Alla" hikoyasida shunday lavha bor: Ozoda bola tug'ishni xohlamay eridan ajraladi. Eri ancha vaqtdan keyin boshqaga uylanib, bola ko'radi. Said Ahmadning "Muhabbat" hikoyasida ham o'zbek hayotining sof milliy tuyg'ulari ifodalangan. Shunday qilib, hikoya janri asta-sekinlik bilan rivojlana bordi.

Hikoya janri ham boshqa har qanday mustaqil janrlar kabi o'z tarixiga, o'ziga xos qiyin taraqqiyot yo'liga, o'z qonun-qoidalarga ega.

O'zbek hikoyanavislari ko'plab ajoyib hikoyalar yaratib, hikoya janrining o'zbek adabiyotida o'zining mustaqil o'rnini egallaganini isbot qiladilar. Bular shuni ko'rsatib turibdiki, ijodkorlarimiz har qanday sharoitda ham o'zlarining ijodkor ekanliklarini unutmadilar va sho'rolarning tazyiqiyu zulmkor siyosatiga qaramay, o'zbek adabiyoti xazinasini o'zlarining mukammal asarlari bilan boyitishga, Cho'lpon va Abdulla Qodiriy, Behbudiy, Fitratlar boshlab bergan an'analarga sodiq qolganliklarini namoyon qildilar. Aks holda adabiyotimiz

hazinasidan munosib o'rin olgan o'nlab sara hikoyalar yaratilmagan , hali hanuz o'quvchilar qalbidan joy olib kelmagan bo'lardilar.

II BOB . OBRAZ , HARAKTER VA DETAL MUSHTARAKLIGI

I fasl . Istiqloq davri hikoyachiligining tamoyillari

Atoqli adib Abdulla Qodiriy ta’biri bilan aytganda “Asar yozganda faqat katta voqealar ketidan kezish yaxshi emas. Hayotda uchraydigan eng mayda detallarni ko’proq hisobga olish lozim. Mayda detallar asarni boyitadi, o’quvchida ishonch hosil qiladi”. Mashhur fransuz adibi Balzakning “Noma’lum shoh” qissasida shunday lavha bor: noyob asarlari bilan dong taratgan kekxa rassom Frenxofer shogirdlaridan birining mashq asarini ko’zdan kechirar ekan, unga o’z qo’li bilan so’nggi bo’yoqni tortadi, uzib- uzib berilgan oqish dog’lar kutilmaganda allaqanday sehr, mo’jiza kasb etib, o’lik rasmni “tiriltirib” hayratga solidi.

- Ko’ryapsanmi , yigit, - dedi chol o’girilmasdan, - ikki – uch shtrix va birgina ko’kimtir – shafof bo’yoq yordamida sho’rlik avliyoning boshi tevaragida shamol aylana boshlaganini ko’ryapsanmi, aks holda manavi dim havoda u tamom bo’g’ilib o’layozgan bo’larmidi... Ko’ryapsanmi , qo’zichog’im , faqat so’nggi bo’yoqlargina katta ma’no ahamiyat kasb etdi. Porbus ko’plab bo’yoqlarni qalashtirib tashlabdi. Men bo’lsam faqat, bir , lekin birakay bo’yoq berdim....¹

“Ikki - uch shtrix”, “so’ngi bo’yoq” , “bir lekin birakay bo’yoq” deganda mo’yqalam ustasi, dastavval , xarakterli , yorqin sehragar detallarni nazarda tutgan va shogirdlarini ana shu qudratli vositaga e’tibor berishini da’vat qilgan edi.

Xo’sh detal nima? Badiiy asarda tasvirlangan detal/ maishat/ , tabiat va kishilar psixalogiyasining tafsilotlari / , tipik sharoitda tasvirlangan tipik xarakterlar birga , hayotning haqqoniy manzarasini yaratishning eng muhim shartlaridan biri tariqasida baholanadi. Shuni doim esda tutish kerakki, tipik sharoitda tasvirlangan tipik xarakterning haqqoniy detallarsiz bo’lishi mumkin emas. Badiiy detal – oddiy hayotdagi detal emas, balki o’zida tipiklik va

indivuduallik xususiyatlarini yiqqan ya'ni badiiy detaldir. Biror kishi obrazini yaratish uchun yozuvchi o'sha kishining o'ziga, shu bilan birga, ana shu kishi vakili bo'lgan muhitga xos detallarni tanlab va yig'ib olishi kerak. Shunday yo'l bilan tasvir etilgan har bir so'zi va ishi o'quvchiga ishonarli bo'ladi.¹

V. Dallning "Izohli lug'ati"da ham shunga yaqin ta'rifni o'qish mumkin: "San'atda detal yoki detallar mansublik alohida narsaning qismlari yoki tafsilotlari, ikir- chikir, juz demakdir".²

Mashhur shoir M.Svetlov aniq detal ko'pincha obrazning o'rnini bosishini, narsalarni yaqin keltirib, qabartirib ko'rsatadigan durbinga o'xshashini aytgan edi. "Bunday hollarda, - deydi shoir, hech qanday romantik so'zlarga zarurat qolmaydi, aksincha, maishiy detal romantikaga yordam beradi. Agar men ertakchi bo'lganimda ertagimni: „Talaba kalishini kiydi va hur- malikalar saltanatiga yo'l oldi", deb boshlar, ya'ni yerni arshi a'loga yaqinlashtirgan, taqagan bo'lardim".³

Tafsilotning "kalibri" detalnikiga qaraganda kichikroq, ta'sir doirasi torroq, shuning uchun tafsilotlar, odatda, jamuljam bo'lib ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, tafsilot sig'imi katta, ta'siri keng tafsilot. Detal deganda ko'p hollarda tafsilotning ham anglashilib turishi sababi shunda.

Detal asar g'oyasiga bevosita mustahkam aloqadordir. Tafsilotlar ko'p hollarda axborot, informatsiya harakteriga ega bo'ladi. Lekin ularning ba'zilari ayrim holatda muhim estetik va psixologik vazifalarni ado etib, detal darajasiga o'sib chiqishlari mumkin.

Tafsilotlardan ko'p yoki oz foydalanish, albatta muallifning niyati, uslubi, asar g'oyasi, syujeti va kompozitsiyasi, janri vahokazo omillarga bog'liq. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi xon o'rdasi tasvirini eslaylik. A.Qodiriy o'quvchining qo'lidan yetaklab, uni oldin o'rdaning tashqarisi bilan

batafsil tanishtiradi. So'ngra o'rdaning ichiga olib kiradi. Muallifning tafsilotdan bu qadar unumli foydalangani tushunarli: u asarda xonlikning marazlari eng ko'p to'plangan joyni- o'rdani erinmasdan, ikir- chikirlarigacha tasvirlab beradi. O'nlab tafsilotlar o'rda haqida to'liq ma'lumot berish bilan birga, ayni vaqtda ularning har biri ma'lum ijtimoiy va estetik yumushni bajaradi. Masalan, o'rda ichida sipohlarning qilichbozlik mashqlari; oybolta ushalgancha tek qotib turgan jallodlar; ko'zni qamashtiruvchi behisob oltin, kumush, marmar buyumu jihozlar va shu kabi tafsilotlar xonlikka xos bo'lgan qonxo'rlik, ortiqcha zeb-ziynat, dabdaba-yu hashamatdan dalolatdir. Gersen o'z maqolalaridan birida san'at hech narsadan hazar qilmasligini, hamma narsani tasvirlashi... turmushdagi istagan tasodifni, arzimagan tovushni, har qanday shaklni beg'araz ko'tarishi mumkinligi haqida yozgan ediki, buning zamirida katta ma'no bor. Chindan ham kundalik hayotda arzimagan ikir- chikir bo'lib ko'ringan narsa, chinakam san'at asariga o'tgach, katta ma'no kasb etishi mumkin. So'z san'atkorlarining asarlarini ko'z o'ngimizga keltirsak, ularda istalgan narsa aytaylik, gul, daraxt, xat, ro'molcha, miltiq, portfel, bo'yinbog, shinel, do'ppi, shlyapa, so'zlar, tovush ohanglari kabilar zo'r detalga aylanganini ko'ramiz.

Detalning tur va xillari ko'p. Chunonchi badiiy asarda ayniqsa, poeziya, proza, dramaturgiyada ishlatiladigan detallarni shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin, bular: tashqi detallar, ichki detallar hamda nutq detallaridir. Tashqi detallar / ko'proq maishiy kartinalar, predmet, peyzaj, qisman portret, ayniqsa, kiyim- bosh, harakat- holat detallari /, dastavval tashqi sharoitni, muhitni ko'rsatishda, davr ruhini berishda, shuningdek harakterlar yaratishda ham muhim ro'l o'ynaydi. Ichki detallar / ko'proq harakat- holat, portret, predmet, qisman peyzaj detallari, maishiy kartinalar/ asosan xarakterini chizishda, personajlarning ichki dunyosini, psixologiyasini ochishda jiddiy ahamiyatga molikdir. Nutq detallari/ personajlar nutqi, muallif nutqi, asar ohangi, tagmatn va hakovzolar / xarakterlar yaratishda ham sharoitni tasvirlashda ham birdek muhim

ro'l o'ynaydi. Dramatik asarlardagi detallarni esa ikki guruhga : so'zli /nutq / va so'zsiz detallarga bo'lish mumkin.

Detallarni bu turda ajratish, albatta shartli. Uch guruh detal aslida yagona maqsadning uch hil ko'rinishidir. Ular tashqi alomatlari bilan bir- birlaridan farq qilganidek ko'rinsa-da, asarda muallif niyatini ifodalashga, asosiy g'oyani ochishga bo'ysundiriladi.¹

Ko'pchilik ijodkorlar boy voqelikdan rang- barang, xarakterli detallarni olib, qayd etib borishni odat qilib qo'yishgan. Hayot materialli, detal, tafsilotlar tafsilotlar dastavval yon daftardan joy oladi, so'ng san'atkorning ijodiy laboratoriyasida ishlovdan o'tib , pishib asarga ko'chadi. Fransuz yozuvchisi E. Zolya uyda, ko'cha – ko'yda , jamoat joylarda ko'rgan , bilgan, eshitgan voqea-hodisalarni erinmasdan, hafsala bilan yon daftariga yozib olarkan ; norveg yozuvchisi G. Ibsenning detallar uchun ajratilgan maxsus sandiqchasi bo'larkan; Abdulla Qahhor turli- tuman hayotiy detallarni yozadigan yon daftarchasini "fikr ombori"deb atagan edi ; Oybekning " Front bo'ylab" deb ataluvchi xotiralar daftarida yozib qo'yilgan detal, tafsilotlar va epizodlar keyinchalik "Quyosh qoraymas" romanini yozishda qo'l kelgani ma'lum.

Xarakterli detallar ijodkor yon daftarida va miyasida ko'paygan sari , uning fikrini band etar va "meni ishlat" deya tiqilinch qila borar ekan. Ayrim san'at asarlarining vujudga kelishiga ba'zi hollarda bir detal turtki bo'lgani haqida ko'pgina, ba'zan qiziq faktlar bor. Rus musavviri V.I. Surikov qirga qo'nib turgan qora qarg'ani ko'rib qoladi-yu, ko'z oldida darhol ko'pdan miyasini qotirib qiynab yurgan "Boyar xotin Morozova" asarining shakl-shamoyili, "qahramon"ning qiyofasi, hatto polotnning rang- barang bo'yoqlari namoyon bo'ladi; L. Tolstoy maysazor oralab ketayotib , behosdan qariqiz o'simligi butasiga turtinib ketadiyu , tasavvurida ko'pdan beri o'ylab yurgan qahramoni Hojimuurodning xarakteri yorqin jonlanadi. Yozuvchi butada Hojimuurodning mag'rur Hojimuurodda butaning xarakterini ko'radi, ularni o'zaro

¹ S. Umirov. San'atning sehrli kaliti. T., 1974,13-14-betlar.

qiyos qiladi va buni povestning boshi va oxirida aytib o'tadi; Ivan Bunin o'lgan bir qizchaning fotosuratini tasodifan qabr tepasida ko'rib qoladi-yu, miyasiga lop etib mashhur „Yengil nafas“ hikoyasining g'oyasi keladi. „Новое время“ jurnali publisisti kiyinishi, fe'l-atvori g'alati, indamas, lekin ichidan pishgan, quv, ichi kir odam – Menshevikov Chexovning mashhur “G'ilof bandasi” hikoyasidagi Bekikov obraziga protatip bo'ladi. Abdulla Qahhor “O'jar” hikoyasini yozishga o'zbekiston xalq artisti, qiziqchi Mirshohid Miroqilov va uning o'g'li bilan ularning uylarida qilgan suhbatini, ayrim voqealar detallar turtki bo'lganini yozgan edi.

Xullas, kichik qism detal chinakam san'at asarida barcha komponentlar, qismlar asosiy g'oyani ochishga bo'ysundirilgan bo'ladi. Tabiiyki, detalning ham bosh vazifasi asarda olg'a surilgan g'oyani aniq ifodalashga xizmat qilishdan iboratdir. Lekin ijodkorning niyati, asar g'oyasi yalong'och holda emas, badiiy obrazlar, kartinalar sistemasida namoyon bo'ladi. Asarning biror parchasini, yoki birorta xarakterli detalni muallifning biror gapini ushlab olib asarning g'oyasi mana shu deyish noto'g'ri, albatta. Badiiy asar organizmining tarkibiy qismini, to'qimalarini tashkil etgan obraz va kartinalar esa, o'z navbatida turli elementlardan “hujayralar” dan tarkib topadi.

Detal tafsilotlar ana shunday “hujayra” lardan hisoblanadi. Demak, detalning eng asosiy vazifasi g'oyani ifodalovchi obraz va kartinalar yaratishda ishtrok etishdir.¹

Shu o'rinda O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev hikoyalarida badiiy detalning qo'llanilishi haqida to'xtalib o'tishni lozim topdik. Shukur Xolmirzayevning 45 yillik ijodiy faoliyatida yaratgan hikoyalari o'zbek nasrining chinakam durdonalari, o'lmas ma'naviy mulki bo'lib qoldi. Milliy adabiyotimizning haqiqiy fidoiysi bo'lmish taniqli adib adabiyotimizda o'ziga xos maktab yaratdi. O'zbek hikoyachiligining yangi pog'onaga ko'targan mohir yozuvchini kitobxonlar romannavis, dramaturg, qissanavis, publisist,

¹ S. Umirov. San'atning sehrli kaliti. T., 1974, 18-bet.

adabiyotshunos, qadimshunos sifatida ham bilishadi. Bejiz yozuvchi suhbatlaridan birida shunday demagan: “Adabiyotni ehtiyoj amri, qismatim deb bilaman. Men shunday hayotning xumori bo’lib qolganman”.

Shukur Xolmirzayevning “Bandi burgut” hikoyasida badiiy detallar shunday qo’llanganki, ularning har biri hikoyadagi voqea- hodisalarni ochishga xizmat qilgan. Avvalo hikoyaning qisqacha mazmuni haqida to’xtalib o’tsak. Hikoyada tasvirlanishicha, qishloq bolalari shamol va yomg’irli bo’rondan so’ng burgut bolasini tutib oladilar. Uni raisning o’g’li Yo’ldoshboy boqib oladi. Voqealar uning do’sti tilidan hikoya qilinadi. Xullas, bolalar burgutni parvarishlaydilar. Lekin uni qafasda saqlashadi. Burgutcha uchun hamma narsani muhayyo qilishadi. Biroq unga ozodlik yetishmasdi. Burgutchaninig raisning mehmonxonasida turgan burgut haykalchasini ko’rarga ko’zi yo’q edi. Ko’pchilikning maslahati bilan Yo’ldoshboy „Endi o’rgangan bo’lsa kerak” deb bandi burgutni qo’yib yuboradi. U osmonga parvoz qiladi. So’ng o’qday uchib, Yo’ldoshboyning hovlisiga so’ng ayvonga, so’ng uyga o’qday uchib kiradi. “Keyin mehmonxonaga o’zini urdi va ichkarida taqir- tuqur bo’lib ketdi. Ichkariga kirsak, fosfor burgut chil- chil sinib ketgan, bizning ovunchoq esa televizorning oyog’i ostida qanotlarini yozib jonsiz yotibdi”.¹

Bolalar bandi burgutning jasadini qabristonga olib borib chuqur kovlab ko’mishadi. Burgutchaninig qabri ustiga tug’ qadab qo’yishadi. Bu holat hikoyada shunday tasvirlanadi:

“Biz o’zimiz anglamagan holda ozodlik yo’lida ko’p intilib, bag’ri qon bo’lib, halokatdan o’zga chora topolmagan, shu ishni ham o’ziga xos tarzda ado etgan sor burgutni „shahid” deb dafn etdik”².

Hikoyada yozuvchi bandi burgut va burgutning fosfordan yasalgan haykalchasi detallari orqali hikoyaning g’oyasini ochib beradi. Hikoyada ozodlik va hur hayot ulug’lanadi.

¹ Shukur Xolmirzayev. Saylanma. III jildT., “Sharq”, 2006, 26-bet.

²O’sha asar, 28-bet.

Shukur Xolmirzayev xalq og'zaki ijodini , xalq hayotini yaxshi bilgani uchun o'z hikoyalarida xalq og'zaki ijodi na'munalaridan ham detal sifatida foydalangan. Buni adibning "To'p o'yin" hikoyasida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Adib bolalar o'yinlari detalidan foydalanib hikoyada esda qolarli obrazlarni yaratadi va bolalar o'yinlari haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi.

Bolalar o'yinlari.....

"Oqsuyak, chillak, to'p, olatayoq, quchmak" , hatto "bekinmachoq" ham bolalar uchun nainki o'yin- ermak, balki rostmana kurash. Izlanish- topish, bu oradagi xafagarchiliklar ozlariga xos iztiroblaru g'alaba nash'asini surishlari haqida hayolga tolsak, beixtiyor shu fikrga kelamiz: Bu o'yinlar shunchaki o'yin emas, bil'aks – hayot. Yashash uchun kurashning o'ziga xos ko'rinishidir. Bolalarning o'zlari esa....- kichkina insonlardir. Demak, bularning o'zaro raqobatlari , sinashmalarida kichik insonlarning o'zlariga xos bo'lgan barcha insoniy jihatlari namoyon bo'ladi. Vo ajab, ba'zan shunday holga ham guvoh bo'lish mumkinki, ana o'sha o'yinlarda mardlik qilgan bolalar, "katta odam" bo'lib yetishganlarida "mard"bo'lib qolar ekanlar. Va o'sha g'irromlik qilgan bolalar katta odam bo'lganlaridan keyin ham aksar hollarda „g'irrom" lik qilar ekanlar. Tag'in o'sha o'yinlarda toblangan qandaydir jihatlari fazilatga aylangan va o'sha o'yin sinovlarda qandaydir darajada shakllangan bola insonlarni ham ko'rar ekanmiz.

Xullas, bolalar o'yinlari ayni chog'da kamina „o'zbek bolalar o'yinlari"ni ko'zda tutadi. Mavjud hayot tarzi , ijtimoiy va iqtisodiy hayot taqozosi va tabiiyki jug'rofiy mintaqalar sharoiti talabida ibtidoda paydo bo'lib , uning samaralari ayon bo'lgani bois hamon davom etib boyib kelmoqda. Kamina ana shunday mulohazalar orqasida "O'zbek bolalar o'yinlari" mavzusida bir turkum hikoyalar yozdim ,- deya yozadi: Shukur Xolmirzayev.¹ Buni biz yuqorida tilga olgan "To'p o'yin" hikoyasida ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi oddiy to'p detail orqali o'zbek bolalar o'ynining qonun- qoidalari, o'yin keltirib chiqargan

¹ Shukur Xolmirzayev. Saylanma. III jild. T., "Sharq", 2006, 28-29-betlar.

quvonchu- iztiroblardan tilga oladi. Adib hikoyaga juda katta badiiy yuk ham yuklagan. Buni biz quyidagi parcha orqali bilib olishimiz mumkin:

“To’p o’yin”da taraflarning nomlanishi o’sha zamonlardan qolgan ekanu, biz uni takrorlar ekanmiz, xalos. Aytmoqchi, o’sha yillarga nazar tashlasak, darhol ko’ramizki, turk ziyoli zobitlarininig Turkiston milliy ozodlik harakatidagi boshchiliklari ham maktablaridagi faoliyatlari ham uzoqqa cho’zilmaydi.

....millionlab qizil askarlarni tashlagan o’rusiya hukumati maorif sohasida ishlayotgan turk ziyoli zobitlarini terib ola boshlaydi. Milliy- ozodlik harakatimiz tor- mor etilganda turk muallimlaridan ham hech kim qolmaydi.

Xalqimiz ruhida Ozodlik va Mustaqilikka tashnalik aslo so’nmasligiga shaksiz ishongan O’rusiya Sho’ro hukumati tilimizda hatto „Ozodlik, Mustaqillik” kabi so’zlarni ishlatish/ boshqa mamlakat fuqarosiga nisbatan ishlatilsa ham shubha bilan qarashi barobarida “Turk, Turkiya, Turkiston” kabi nomlarni-da iste’moldan chiqarib yuborishga harakat qilishadi va bunga qisman erishadi, ham.

Qarang, oddiy “to’p o’yin”larimiz... mustaqillik uchun kurash tariximiz bilan chambarchas bog’liq. Bu o’yinning qadimiyligi bir zamonlar raqib tomonlarning nomlari ham o’zgacha atalgan. Yozuvchi hikoyada badiiy detal orqali Mustaqillik va Ozodlik haqidagi g’oyani ustalik bilan satrlarga singdirib yuboradi.

Shukur Xolmirzayev “Ikki jahon ovvorasi” hikoyasida ham badiiy detalni o’rinli qo’llash orqali asarni g’oyasini ifodalaydi. Asarda oila, ota- ona va farzandlar burchi haqida gap boradi. Yozuvchi farzand detail orqali voqealar rivojini kitobxon ko’z o’ngida gavdalantira oladi. Hikoya voqealari quyidagicha: farzandsiz er va xotin oilasini asrab qolish niyatida bolalar uyidan farzand asrab olishadi. Uni mehr bilan tarbiyalab voyaga yetkazadilar. Farzandlari katta bo’lgach, urning fe’li aynib ajrashish va

boshqasiga uylanish harakatiga tushadi. Buning uchun u uyni xotininig nomiga xatlab bermoqchi bo'ladi. Ayol esa o'laman sattor menga farzandimdan boshqa hech narsa kerak emas, menga boshqa bu haqda og'iz ochmang deydi. Ish shu darajaga borib yetadiki, ularning ishi sudda ko'riladigan bo'ladi. Sudda sudya boladan otasi bilan yashashni istaydimi yoki onasi bilanmi shuni so'raydi. Bola "yashasam ikkovlari bilan yashayman"deb javob beradi. So'ng o'ylab turib "Anhorning sayoz joyiga borib tursinlar . O'sha yerdan chiqib qolarman. Ana o'shanda gapimni ma'nosini tushunib olasizlar" deb chopib chiqib ketadilar.Uning ortidan ota- onasi, burchakda o'tirgan millitsioner yugurib chiqib , uni suvdan tortib oladilar. Ularning har ikkisi farzandini yaxshi ko'rishlarini, farzandsiz yashay olmasliklarini aytib boladan uzr so'raydilar.Er-xotin yarashganliklarini aytishadi. "Rahmat, sizlar janjallashib yurganda nimanidir ko'nglim tug'ruqxonaga boruvdim. Tug'ilgan kunim yozilgan daftarni olib ko'rdim. Tushindimki, o'shanda meni tug'ildi-yu o'ldi" deb akt tuzishgan ekan.Demak man o'lgan ekanman....U bola yo'q , man- boshqa sizning farzandlaringman"¹ deydi. Hikoya shu jumlar bilan tugaydi. Biroq mana shu jumlaning o'zida bir olam ma'no mujassam. Muallif bu yerda oila muqaddasligini , farzand uchun ota- onadan azizroq kimsa yo'qligini , shu bilan birga kattalar ba'zi hollarda hatto bolalarcha fikr yurita olmasliklarini , xato qilishlarini haqqoniy lavhalarda ko'rsatib beradi. Agar ularning farzandlari qattiq turmaganida , zo'r berib ota- onasini insofga kelib yarashishlari uchun astoydil harakat qilmaganida , buning uchun hatto o'zini halok qilishga ahd qilmaganda oila asrab qolinmagan bo'lardi.

Adib "O'zbek bobo" hikoyasida bog', turli ko'chatlar va nashvatining yangi ulangan niholi detallari orqali o'zbek xarakterini ochib beradi. Hikoyaga hadisi sharifdagi "Bir kunning qolsa ham daraxt ek" degan so'zlar epigraf qilib olinadi.

¹ Shukur Xolmirzayev. Saylanma. III jild, -T-, 2006, 102-bet.

Ota bobolari polvon va bog'bon o'tgan Amirqul polvon ham boqqa mehr qo'yadi. Bog'ini mehr bilan parvarishlab, yangi- yangi mevali daraxtlarni ekadi. Kamyob nashvati ko'chatini payvand qiladi. U payvand tutib ketganini ko'rganda yosh boladek suyunadi. Amirqul polvon dov- daraxtlarga shunchalik mehr qo'yganki, u hatto katta terakni kesayotganlarida mana shu jajji niholni bosib qolmasin deb o'zini mana shu terakning ostiga oladi. Yozuvchi bu detal orqali o'zbek xalqining azal- azaldan bog'- rog'lar yaratish ishqida yashab kelganligi, yangi bog'lar yaratish uchun hatto jonini ham fido qilishga tayyor ekanligini ko'rsatadi.

Hikoyaning boshidan oxirigacha o'sha nashvatining payvand qilingan novdasi asar g'oyasini undagi voqealarni tasvirlashda yozuvchi uchun eng ishonchli ko'rgazmali qurol bo'lib xizmat qiladi. Boboning bog'ida vaqtincha yashab turgan o'g'lining do'sti Qismatilloning beparvoligi tufayli o'sha niholni molga yedirib yuboradi. Bu bedodlikni ko'rgan boboning holati shunday tasvirlanadi:

Yo tavba nashvati qani?

Shunda birdan ko'rdi.... Nashvatini emas yo'q nashvati payvand qilingan nok ko'chatining kesigini topdi. Mana- mana.... Chol uni yer baravariga qilib kesgandi, toki nashvatining ulangani bilinmay ketsin. Qolaversa, bunaqa tarzda ulangan novdaning tagiga tuproq uyib qo'yilsa, naq noshvati ulanmasidan ham ildiz chiqib ketadi. Bunaqa payvand eng maqbul hisoblanadi. Ajabo, mana yerdan andaq chiqib turibdi o'sha kesilgan nokning poyasi. Ammo unga ulangan va g'ujum- g'ujum gullar qilgan noshvati yo'q edi.¹

Lekin muallif asarni bunday hazing tugatishni hohlamaydi. Aks holda o'quvchida ham umidsizlik hislari uyg'onishi turgan gap edi. Shuning uchun yozuvchi o'sha asar boshida ishlatgan nashvati ulamasidan bo'lgan detal yordamida hikoyaga juda chiroyli yakun yasaydi. Amirqul polvon oradan

¹ Shukur Xolmirzayev. Saylanma.III jild. ., -2006-, 373-bet.

ancha vaqt o'tib boqqa keladi. „Yirik- yirik qadam bosib tanish joyga bordi. Engashib tikildi va poyani ko'rdi-yu , astagina cho'nqayib o'tirdi. So'ngra poyachaning cho'ltoq joyini barmoqlari bilan siypalab vaqtida yorilgan chizgiga tikildi. Aniqrog'i, yorilmaga emas, uning ikki yoniga tikildi va asta-sekin kun yorishayotibdi-yu hamma narsa ravshanlashgan kabi ko'ra boshladiki, yorlamasiga dars ketgan joylaridan yashilgina bittadan yashil pindi chiqayotgan ekan. Chol cho'kkalab olib boqdi. U tomonidan ham, bu tomonidan ham va ajabo o'sha oraliqlarda qolgan qalamcha qoldig'I nokning po'stlog'iga o'ralib ketgan. Undan ozuqa ola boshlagan edi. Polvon bobo birdaniga chordana qurib o'tirib oldi. Nimadir qilishi kerak edi.

Nima qilsa ekan?

Chol kaftlarini ochib, hovuchiga tikildi. So'ng yon – atroflariga mo'ralab qarab, yanayam engashdi. Va pindiqlariga lablarini tekkizib oldi. So'ng o'zicha ishlayib atroflariga bemalol qaray boshladi. Bog'i kengayib ketganday balki qisq ko'zlari g'olibo kattalashib ketganday edi. He tavba deb pichirlab o'rnidan turayotgan edi, qo'li zirqirab ketdi. –Hech qisi yo'q deb shivirladi. –O'sadi bu. Hademay bo'y tortib ketadi. Suv purkab turaman... Saratondan o'tsa , u yog'iga jinam urmaydi....”¹

Muallifning “Qushlar qishloqdan qaytdi”, “Navro'z, Navro'z”, “Quloqchuzma”, “Tanholik”, “Mangu yo'ldosh” , “Kuzda bahor havosi” kabi hikoyalarida voqealar , detallar , buyumlar qay tarzda kuzatilgan , ko'rilgan bo'lsa, ularni obrazlarga aylantirish uchun yozuvchi ancha ter to'kkanligini , katta kuch mrhnat sarflaganligini sezib olish qiyin emas. Hayot, Voqelik bilan obraz , asar o'rtasida subyekt , ya'ni san'atkor mahorati va shahsiyati uning metodi , uslubi, mahorati va hakoza g'oyatda muhim ro'l o'ynaydi.

Ma'lumki, ijodkor obraz chizar ekan, hayot kartinalarini gavidalantirar ekan, hech qachon beparvo, ehtirossiz guvoh , passiv kuzatuvchi bo'lib qolmaydi, yo

¹ Shukur Xaolmirzayev. Saylanma. III jild. T., 2006, 390-391-betlar.

tasvirda tasdiqlanadi, yo inkor etadi. San'at har bir vaqtning o'zida ham hayot „ko'zgusi “ sifatida , ham ijodkorning bahosi , voqelik ustidan chiqargan „hukmi” sifatida namoyon bo'ladi. San'at bu hukmni o'z vositalari, badiiy vositalar bilan chiqaradi, ana shu vositalar ichida xarakterli badiiy detallar va tafsilotlarning o'ziga munosib o'rni salmog'I bor. Biz Shukur Xolmirzayev hikoyalarida har bir detal asardagi voqea- hodisalarni aniq tasvirlashga , obrazlarni mukammal gavdalantirishga xizmat qilganini ko'rib chiqdik. Ayniqsa, „O'zbek bobo” hikoyasidagi nihol detail bog' manzarasini , inson ichki ruhiyatini nihoyatda tiniqlashtirib ko'rsatgan. Bu adibning voqelikka chinakam san'atkorona ko'z bilan qarab bog'ni aniq va jozibador tasvirini beruvchi xarakterli detallarni ko'rishga muvaffaq bo'lganligini yana bir yorqin na'munasidir.

Qolaversa, Shukur Xolmirzayev detallarni chertib- chertib ishlatishi , eng xarakterli detallarni topganligi , ular adibning ehtiroslarini , kechinmalarini , maqsadini aniq va ravshan ifodalab, adibning ruhiy olamini chaqmoqday bir lahza yoritib , payonsiz tuyg'ularini bir shaklga solib, o'quvchida boy assotsiatsiyalar uyg'otib , tafakkurga turtki bergan.

II fasl Kichik janrning o'ziga xos xususiyatlari

Nasriy asarlar obraz yaratish, jonli va yorqin kartinalar chizish, voqealarni plastik qo'shma holda gavdalantirish uchun nazmdagina qaraganda birmuncha kengroq imkoniyatlarga ega. Lekin bundan, prozada obraz chizish uchun detal va tafsilotlarga yo'l katta ochiq ekan, ulardan istagancha foydalana bersa bo'larkan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Prozaning ham ko'pgina qoidalari, talablari, ichki qonuniyatlari bor. Faqat bu qonun- qoidalar nazm asarlaridek yaqqol ko'zga tashlanib turmaydi. Har bir tasviriy vositadan, poetic san'atdan foydalanishda ularga qat'iy amal qilish lozim bo'ladi. Bunda ham obraz yaratishda asosiy narsa tasvir obyekti/ narsa- hodisa, odam, jonivorlar va hokozolar/ ning eng yorqin harakterini, tipik barqaror belgi, xususiyat xislatlarini aks ettirib, u haqda yaqqol, tiniq, aniq tasavvur hosil bo'lishiga imkon berishdir. O'rnida ishlatilgan jozibador detal har qanday asarga, jumladan, hikoyalarga ham jon kiritib, alohida jilo bag'ishlab yuborishi, o'quvchi tasavvurida aniq obraz, yorqin manzara hosil qilishi mumkin.

Ma'lumki, adabiyotninig bosh tasvir obyekti- inson. Demak, obraz va kartinalar yaratish deganda, dastavval inson obrazini chizish, kartinalarda insonni, uning hayoti, faoliyati, ruhiy dunyosi bilan bog'liq lahzalarni tasvirlash ko'zda tutiladi. Modomiki, shunday ekan, san'atkorninig diqqat markazida doimo, hatto odam bevosita tasvirlanmagan obraz, kartina va lavhalarda odam turishi, asardagi hamma elementlar, jumladan detallar odam obrazini yaratishga xizmat qilishga bo'ysundirilishi lozim. Bu jihatdan O'lmas Umarbekovning hikoyalari e'tiborga molikdir.

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'lmas Umarbekov adabiyotimizga 50-yillarning ikkinchi yarmida huddi tong yulduzidek charaqlab kirib keldi. Adabiyot va ma'naviyat degan ko'rkam bu bog'ni porlatib, yashnatdi. Biroq bu bog'dan huddi qish quyoshi kabi ancha erta bemahal tez ketdi. 1994- yilning 10- noyabrida o'zi yashagan, yashnatgan ana shu adabiyot bog'ini tark etdi.

Ammo, yaxshidan bog' qoladi deganlaridek, rang- barang janr va mavzularda yaratilgan katta va boy ma'naviyat va adabiyot bog'ini meros qilib qoldirdi. O'zining "Xatingni kutaman" /1956/ nomli birinchi hikoyasi bilanoq „yilning eng yaxshi asari" degan sharafiga ega bo'ldi. Dam o'tmay "Boboyong'oq" hikoyasi el og'ziga tushdi. Hatto Abdulla Qahhordek hasos yozuvchi ham mazkur asar haqida katta fikr bildirdi. Shundan so'ng adib nafaqat kitobxonga balki, adabiy tanqidchilik e'tiboriga ham kiradi. Ayni chog'da Oybek, G'afur G'ulom, Said Ahmad kabi ulkan ustozlar e'tiborini tortdi.

Yozuvchi hikoyalari mavzu jihatdan nihoyatda keng , ko'p qatlamlidir. Agar ayrim hikoyalarda yoshlar taqdiri , "muhabbat mojarosi" ishqiy tuyg'ulari ifodalansa, ayrim hollarda urush va uning ochmas jarohatlari, saboqlari umumlashtiriladi. Yana bir turkum hikoyalarda bulg'or xalq qahramonligi ulug'lansa, yana bir turkum hikoyalarda tabiat inson taqdiri va ekologik muommolar o'z ifodasini topadi. Adib hikoyalari orasida "Otalar va bolalar" muommosiga bag'ishlangan asarlar ham anchagina bo'lib , unda meros va vorislik an'analariga urg'u beriladi. O'lmas Umarbekov hikoyalari qaysi mavzu, qanday muommoni badiiy hal etmasin , ulardagi ma'naviy – axloqiy muommo bir butunlikni , izchilikni keltirib chiqaradi. Binobarin, insondagi ma'naviy - axloqiy go'zallik va uni parvarishlash jamiyat ravnaqining bosh omili degan xulosaga yetaklaydi.¹

O'lmas Umarbekov ijodiga xos ustuvorlik va fazilatning siri shundaki, u voqeanavis ijodkor emas, hayotni harakterlarni tadqiq etuvchi, tahlilkor san'atkor ekanligidadir. Hayotning ichki qatlamlarini chuqur o'rganish va tahlil qilish , inson taqdirida ro'y bergan ziddiyatli holatlarning ichki belgilarini umumlashtirish, badiiy tafakkur tarozisiga qo'yish, lirzmga moyillik, ba'zan detektiv yo'nalishi, inson harakterini ichki, ruhiy holatda, qalbi his- tuyg'ulari orqali ochib berish va u yaratgan usulining o'zgachaligi dalilidir. U yaratgan qahramonlar na mansab, na lavozimi bilan emas, balki odamiyligi, kamtarligi ,

chin insoniyligi bilan , hayot haqiqatiga fayz bag'ishlaydi, o'quvchini o'ziga maftun etadi, ishontiradi, ergashtiradi.

Adibning badiiy detal ishlatishdagi mahorati ham o'ziga xosdir. Buni uning “Ota va o'g'il” hikoyasida ko'rishimiz mumkin. Hikoya quyidagi tasvir bilan boshlanadi:

Professor Sabohat Qodirova o'g'lining konsertidan o'zida yo'q sevinch bilan chiqdi. Bu gal ham avvalgi kunlardagidek, to'rt ming kishilik tomosha zali odamga liq to'la edi. Bu gal ham odamlar konsertga to'yishmaydi, gulduros qarsaklar chalib , yer tepib uni so'rashdi , talab qilishdi:

- Baxtiyorjon ! uka ! Yana bitta ayt! Jon uka!
 - Bitta ayt , otang rohatingni ko'rgur bolam!
 - Tog'dan atayin tushganmiz! To'ymay qoldik! Bitta yana! Bitta ayt!
- Jon tasadduq!¹

Hikoyada yetakchi detal bo'lib qo'shiq va qo'shiqchi turadi. Hikoya qahramoni Sabohat Qodirova o'g'liga ham ota, ham ona bo'lib ulg'aytiradi. Uning qo'shiqchi bo'lib yetishishi uchun dildan ko'maklashadi. „San'atga , san'atkorga elda bo'lgan e'tibor, hurmatni u tasavvur qilardi. Ammo u o'n kun ichida o'g'liga bo'lgan e'tibor , hurmat uning tasavvurlaridan , ko'rgan bilganlaridan , umid- orzularidan o'tib ketdi. Uning sevimli o'g'li Baxtiyor el sevgan haqiqiy san'atkor bo'lib yetishgan edi. Faqat haqiqiy san'atkornigina el shunday kutib oladi. Sabohat Qodirova buni konsertning birinchi kuniyoq tushundi, ammo sir tutdi, hech kimga aytmadi, o'g'lining o'ziga ham bildirmadi. Dili g'ururga to'lib ketganiga qaramay, keying kunlarning tashvishini qildi,qiziqishi susayib, tomashabin kamayib ketishidan cho'chidi. Shunday bo'lmasligini, biletlar sotilib bo'lganini bilsa ham xavotirlandi. O'g'lining hamma san'atkorlarga o'xshab, tabiati nozik, odam siyraklashib borayotganligini ko'rib, ruhi tushib ketishi mumkin emas edi.

¹ O'. Umarbekov. Tanlangan asarlar. I Jild, T., 2002, 325-bet.

Ammo konsertga qiziqish kundan- kunga kuchaydi. Tartib o'rnatish, konsertlarning tinch o'tishini ta'minlash uchun militsiya chaqirishdi. Uyda telefon keti uzilmay jiringlaydigan bo'lib qoldi. Bir minutga bo'lsa ham uning ovozi eshitmoqchi bo'lgan uyatchan qizlar telefon qilardi, hamma narsani, hamma narsani pulga sotib olish mumkin deb o'ylaydigan boyvachchalar, san'atda yangi yulduz paydo bo'lganligi sababli, sevinchiga chidolmay, tabrikلامoqchi bo'lgan ziyolilar, to'ylari, majlislari, tantanali marosimlarga taklif qilgan minstrlar, ming xil birlashmalar, firmalarning boshliqlari, vakillari.... Hammasiga Sabohat Qodirova javob qildi. Hech kimni ranjitmadi, ammo hech kimga ham va'da bermadi. Bir narsa shu o'n kun ichida ravshan bo'lgan edi. Kechagina u oila boshlig'i hisoblangan uyda o'g'li birdan yangi, mustaqil faqat san'atkorgina tushinishi mumkin bo'lgan murakkab hayotga qadam qo'ygan, birdan u bilan tillashgan, dilini quvonchga to'ldirgan edi.¹ Shundan so'ng muallif Sabohat Qodirovaning kechmishi, boshidan kechirgan kunlari, quvonchu tashvishlari haqida ham qiziqarli hikoya qiladi va buning uchun bir- biridan harakterli detallarni topib ishlatadi.

Ma'lumki, yozuvchi badiiy umumlashma yaratishda, o'sha umumlashmani vujudga keltiruvchi va unga xos alohida xususiy juziy narsalarga e'tibor beradi, tipik harakter yaratmoqchi, tipik sharoitni ko'rsatmoqchi bo'lar ekan, muhim zarur individual xususiyatlarga, belgilarga umumiylikka o'zida eng ko'p mujassam qilgan alohidalarga e'tibor beradi. Topib ishlatilgan yorqin detal harakter chizish, obrazning ayrim jihatlarini yarq etib ko'rsatish, tipiklashtirish, umumlashtirishda favqulodda muhim ro'l o'ynaganiga O'lmas Umarbekovning "Mehmondorchilik" hikoyasi misol bo'la oladi. Hikoyada issiq yoz kunlarining shunday tasviri beriladi:

" Saratonning o'rtalari edi. Kunlar issiq, ertalabdan namiqa boshlagan badaningda, dimog'ingdayozning issiq nafasini sezibgina qolmay, hatto jimirlashini ko'rasan. Ko'ngling shabboda esib turgan salqin joy, muzdek havo

¹ O'. Umarbekov. Tanlangan asarlar. I jild. T., "Sharq", 2002, 326-327-betlar.

istab qoladi.¹ Yozuvchi tasvirlangan ushbu parchada saraton kunlarning haqiqiy manzarasi chizib berilgan. Muallif o'quvchini turli detallar va tafsilotlar vositasida yoz faslining jazirama kunlari va salqin joydagi mehmondorchilikka boriladigan joyga yetaklaydi. Shunday qilib, Umid Nazarov do'stlari bilan Qorasaroyga boradi. Umidning do'sti u yerni shunday ta'riflaydi: “ Hovlining o'rtasidan katta ariq o'tgan. O'rik, olma pishib yotibdi. Salqin! Yo'l- yo'lakay muallif qishloqqa shunday ta'rif beadi: “ Qorasuv daryosi ustidagi keng taxta ko'prikdan o'tib, o'ngga burildik. Shu yerdan dala havosi boshlandi. Biz burilgan bog' ko'cha katta yo'ldan ancha past edi. Ikki tomoni terakzor, ariqlarda sharqirab suv oqib turibdi. Ko'pgina imoratlar yaqinda qurilgan bo'lsa kerak. Shu jozibaga yo'lning chetiga qorni to'yib kavshanib yotgan sigir, ariq labida erinib o't chimchimalayotgan qo'y-qo'zilar qo'shilib, odamga tinchlik, xotirjamlik bag'ishlaydi”.² Muallif shu tariqa barchani o'zlari mehmon bo'lib borayotgan xonadon sari yetaklaydi: “Juvon eski qadrdonlardek, ayollar bilan quchoqlashib ko'risha ketdi. Keyin biz, erkaklar bilan qo'l berishib so'rashdi-da, hammani ichkariga boshladi. Derazalari ko'chaga qaragan uydan o'tishimiz bilan katta hovli paydo bo'ldi. Umid to'g'ri gapirgan ekan. Hovli serdaraxt edi. Olma, shaftolilarning shoxlari egilib yotardi. Uyning oldidagi baland so'ridan toifi, shivilg'oni, qirmizi uzum boshlari yoqutdek, oltindek tovlanib turibdi.

Juvon ravonga ko'tarilib, uyning ichiga taklif qildi.

- Hovlida o'tirqolsak-chi?

Ammo juvon ko'nmadi.

- Bitta xonani muzdek qilib qo'yganman. Qani marhamat!

Biz oq kiyimlarimizni yechib, nimqorong'u xonaga kirdik. Muzdek havo gup etib dimoqqa urildi. Juvon baland derazalarga tortib qo'yilgan baland pardalarni yig'ishtirdi. Xona yorishib ketdi. U kattagina edi. Chor atrofga

¹ O'lmas Umarbekov. Tanlangan asarlar. I jild. T., 2002, 354-bet.

² O'sha yerda, 356-bet.

ko'rpachalar yozib qo'yilgan, burchaklarda yostiqchalar bir- birining ustiga taxloqlik edi. Juvon xonaning o'rtasidagi xontaxta ustiga dasturxon yozdi. Hammaning o'tirishini kutib turib, o'zi ham cho'kladi-da, qo'llarini fotixaga yozdi.¹

Yozuvchi turli detallardan foydalangan holda mehmondo'st o'zbek ayolining obrazini gavdalantirdi, uning yorqin siymosini mexr- muhabbat bilan tasvirlaydi. Ayniqsa, ayolning naqadar go'zalligini, bu go'zallik faqatgina o'zbeklargagina xos xislat, sharqona fazilatlar mevasi ekanligini yorqin lavhalarda o'rsatib beradi.

Xonadon sohibasi Umid va uning do'stlarini ochiq ko'ngillik bilan mehmon qiladi. Ularning oldiga uyida borini to'kib soladi. Ikkita qozonda ikki xil ovqat qiladi. Mehmonlar ishtaha bilan ovqatlanishgach, ularning xovlisidagi bog'iga boshlaydi. Mehmonlar o'z qo'llari bilan uzib tanovul qilishadi. Bu haqda hikoyani hikoya qilib berayotgan roviy yigit quyidagilarni bayon qiladi:

“Ho'jayinning yo'qligini hisobga olmaganda hammamiz xursand edik. Ayolning mehmondo'stligidan va ko'nglimizni olganidan Umid hammamizdan ko'proq xursand edi. Ikki gapning birida Tolibjonni, uning ajoyib usta ekanligini maqtar, shunday odamning shu juvondan boshqa xotini bo'lmasligini, ikkovlari huddi uzukka tushgan ko'zdek ekanligini qayta-qayta takrorlardi”.²

Mehmondorchilik oxirida ya'ni kechki payt ma'lum bo'ldiki, Umid boshlab kelgan mehmonlar butunlay boshqa, ya'ni notanish Tolibjonning uyida mehmon bo'lishgan ekan. Bundan xijolat bo'lgan mehmonlar undan uzr so'rashib ismini so'rashadi. Ayolning ismi Umida ekan. Uning turmush o'rtog'i vafot etgan ekan. Ayolning “ Voy mehmondan aziz odam bor ekanmi? Omon bo'lganlarida, o'n chandon yaxshi kutardilar. Hali ham

¹ O'lmas Umarbekov. Tanlangan asarlar. I jild. T., 2002, 356-bet.

² O'sha yerda, 358-bet.

kelganlarining ruhlari shod bo'ladi, bilaman" degan so'zlaridan ham uning naqadar bag'ri keng va mehmondo'st ekanligini sezib olish qiyin emas. Shunday qilib notanish juvon Umida hammaning eng yaqin odami bo'lib qoladi. Mana, sizga o'zbek xarakteri. O'zbek xalqining mehmondorchilik udumining muqaddasligi, "Mehmon otangdan ulug'" degan naqlning hayotda naqadar to'g'ri ekanligiga yorqin misol.

O'lmas Umarbekovning "Hotamtoy" hikoyasida ikkita detal bor. Birinchisi "baland ko'njlik, ichi jun, issiq" qizil etik. Ikkinchisi "yoqalari keng, tikkatik, qaytarma cho'ntaklari katta" qizil palto. Muallif mana shu ikki detal orqali xalqimizning saxovatpeshaligini ishonarli tarzda ochib beradi. Bularni Holposhshaninig dadasi o'gay onasi bilan olib kelib berishgan edi. Holposhsha maktabdan kech qaytayotganda uning yo'lini to'sgan ikki olifta yigitlar paltosi va etigini yechib olishadi. Unga pichoq o'xtalishadi. U qo'rqqanidan uyiga bormay sinf xonasiga boradi va yig'lab yuboradi. "O'gay onasi, ona tili o'qituvchisi, yana allakimlar uni qidirib topishganda qorong'u tushgan, yuz-ko'zlari, butun badani olovdek yonardi". Bosh-ko'zingdan sadaqa bolam! Shunga kuyasizmi? Bitta palto ekankuz men sizga o'ntasini olib beraman. Faqat qo'rqitmang, ko'zingizni oching, bolajonim!

Xolposhsha kasal bo'lib yotib qoladi. Militsiyadan, prokraturadan kelishib so'rab surishtirishlar boshlanadi. Og'ay onasi shifokordan Xolposhshaning kasalligi haqidagi spravkasini cho'zib berishini iltimos qiladi va yakshanba kuni bozorga borib oyog'iga ul-bul olib berishini, hozir esa qizi darsga borolmasligini aytadi. Onasi ishga borsa bo'lmasligini aytib, tushlik ovqat, qovoq somsa va choy damlab ketadi. Xolposhsha o'rnidan turib, yuvinib endi choy ichishga o'tirganda ko'cha eshik taqillab qoladi. Xolposhsha tashqariga chiqsa hech kim yo'q. Xolposhsha hayron bo'lib eshikni zanjirladi. Orqasiga o'girilganda eshikning yonida turgan tugunga ko'zim tushdi. Tugunning ustida xat bor edi.

Konvertni yirtib o'qiy boshladi: “ Hurmatli Xolposhsha! Boshingga tushgan tashvishdan, anchagina betob bo'lib yotganingdan xabarimiz bor. Endi senga hech kim tegmaydi. Lekin bilib qo'y, hali bu hayotda kuchi ojizlargagina yetadigan noinsoflar, xaromxo'rlar oz emas. Ming afsus, ularning bir guruhiga sen duch kelib qolding. Endi xavotir olma. Yaxshi o'qi. Sarpolarining muborak bo'lsin. Hotamtoy”.¹

Muallif bu hikoya orqali ertaklardagi saxovatli Hotamtoy kabi insonlar hayotda ham borligini, bunday saxovatpeshalik xalqimizga xos odat ekanligini yana bir bor ishonarli badiiy detallar- etik, palto orqali ko'rsatib beradi. Asarning boshidan oxirigacha bo'lgan barcha voqea- hodisalar ortida albatta yozuvchi tanlagan detal qizil ip bo'lib o'tib turadi.

O'lmas Umarbekovning “Hotamtoy” hikoyasida xalqimizning qo'li ochiqligi, mudom yaxshilik qilishday ezgu istak bilan yashashi, eng muhimi, o'zi qilgan yaxshiliklardan boshqalarga bildirmasdan qilishi, haqqoniy tasvirlangan. Albatta, bunday tarzdagi hikoyani o'qigan kitobxonlar, ayniqsa, yoshlar qalbida ezgu ishlar qilish, savobli ishlarga qo'l urish singari hislatlar paydo bo'lishi shibhasiz. Bular yozuvchi asarining tarbiyaviy ahamiyatga molik ekanligini ko'rsatuvchi muhim omillardan sanaladi.

Adibning “Oqsoqol” hikoyasi muhim mavzu-oila, ota onalik burchi va sevgi mavzusiga bag'ishlangan. Hikoya boshida ikki sevishganlarning buloq boshida o'tirganlari detal sifatida beriladi. Ularni soqov o'tinchi ko'rib qoladi. Yigit qabila boshlig'ining og'li Mardon edi. O'tinchi soqov dastlab “Oqsoqolning og'li Mardon uylanar ekan. Rosa o'tin kerak bo'ladi o'shanda. Archa topib kelishni ham buyurishadi. Archa o'tinsiz kabob qilib bo'larmidi? Mesh-mesh buloq suvi ham tashiladi. To'yda u maza qiladi. Issiq non yeydi. Katta gulhan yoqiladi, tong otguncha o'yin- kulgu qilishadi.”²

¹ O'lmas Umarbekov. Tanlangan asarlar. I jild. T., 2002, 366-bet.

² O'lmas Umarbekov. Saylanma. I jild. T., 2002, 368-bet.

Ana shunday hayollar bilan o'tirgan "O'tinchining yuragi orqaga tushib ketdi. Qiz ularning qabilasidan emas edi. Bo'ynidagi oynusxa qizil tumordan u o'g'iz edi. O'g'izlar o'sha mash'um fojiaga, yer ko'chganiga qadar saklar bilan qo'shni edi, mol berib mol, qiz berib qiz olar edi. Yer ko'chganda Qurama gumburlab ketdi. Ikkala qabila bir- biridan bir- zumda ajraldi qoldi. Qoradaryo sug'orib turgan mevazor, ekinzorlar saklarga bo'lindi.

Shu daxshatli fojiadan keyin ikkala qabila bir-biri bilan yuzko'rmas bo'lib ketdi. O'g'izlar sut- qatig'ini qizg'ana boshladi. Saklar don- dunini bo'lishgisi kelmadi. O'zboshimchalik qilganlar, tog' oshib, mol tolashganlar ikkala tomonda ham qoralanib, jazolanadigan bo'ldi. Uch yil burun sak qizini yetaklab kelgan yigitni o'g'izlar qiz bilan birga toshbo'ron qilib otib yubordilar. O'tinchi shularni bilardi. Hayajon ichida bir narsalar dedi o'zicha g'uldirab va qiz ketidan yo'l olgan Mardonni kuzata boshladi".¹ Soqov o'tinchi bu haqda urug'doshlariga xabar beradi. Hammaning g'azabi keladi. Axir dushman qabiladagi qiz- yigit bir birini sevib qolishi mumkin emasdi. O'tinchi odamlarni yigit- qiz kirib ketgan g'orga boshlab boradi. Oshiq- mashuqlarni qo'lga olganlarida esa yigit qabila oqsoqolining o'g'li eknligi ma'lum bo'ladi. Ularni jazolashga kelganda oqsoqol taraddudlanib qoladi.

- Nima qilamiz?- so'radi qariyalardan biri.

Oqsoqol gap nima haqida ketayotganini tushundi. Hozir o'g'li yoki o'g'iz qizning himoyasiga aytilgan bir og'iz so'z butun maydonni alg'ov- dalg'ov qilib yuborishi va qabilani ikkiga bo'lib yuborishi mumkin edi. Bu ikki yosh, o'g'izlar bilan munosabatini to'xtatib qo'ygan ahdning qurboni bo'lishi lozim. Ulug'lar va oldingi marhum oqsoqolning bir og'iz gapi bilan ko'pchilik qo'shnichilik odatlari bo'yicha yashaganlari va shunday turmushdan manfaat ko'rib kelganlariga qaramay, yer ko'chib boshlariga tushgan qiyinchiliklardan so'ng, topgan-tutganlarini faqat o'zlari, hech kim bilan bo'lishmay baham ko'rishni qo'shnichilikdan afzal biladigan bo'lib qolgan

¹ O'lmas Umarbekov. Saylanma. I jild. T., 369-bet.

edilar. Garchi bunday yashash yengil bo'lmasa ham yil o'tgan sari bu ahd odat tusiga kira boshladi. O'g'izlar ularning qizlarini mayli, garchi o'g'iz yigiti bilan qochib ketib gunoh qilgan bo'lsa ham, toshbo'ron qilib o'ldirib yuborganlaridan keyin esa o'rta tushgan sovuqchilik dushmanlikka aylandi, yer tagidan aylanib chiqqan Quramaning yangi qanoti chegara bo'lib qoldi. Kim shu chegarani buzsa, jazoga tortiladi. Ikki yosh chegarani buzdigina emas, qabilalarning ahdlarini oyoqosti qildi. Buning ustiga saklar hali o'z farzandlarining qasoslarini olishgani yo'q. Oqsoqol dilida bularni ham xalq toshbo'ronga hukm qiladi, biroq gunohkorlardan biri uning qabila boshlig'ining farzandi ekanini nazarga olib, hukmni yumshatar, o'linga bormas deb umid qilardi. Shuning uchun ota emas, oqsoqollik mavqeyidan turib javob berdi:

- Nima qilardik? El nima desa shu.

Bu bilan u men qabilaning xolis xizmatkoriman, o'g'lim yolg'iz farzandligini e'tiborga olib, o'zlaring insof bilan hal qilinglar, degandek bo'ldi".¹

Biroq olomon uni tushunadigan ahvolda emas edi. Kimdir "O'lim!", yana birov esa "Toshbo'ron!" deb talabni qattiq qo'yishdi. Noiloj qolgan ota otalik burchini bajarish uchun kechqurun o'g'lini va qizini bandilikdan bo'shatib qochirib yuboradi. Adibning "Garov" hikoyasi sakkiz million so'm detail asosiga qurilgan. Hikoyada Obidjon akaning O'g'li Sanjarni garovga olgan kimsalar undan ana shu pulni talab qilishadi. Bu haqda tegishli organlarga xabar bermaslikni aytib do'q-po'pisa qilishadi. Hikoya oxirida aytilgan joyga pulni olib brogan ota o'g'lini o'rnida pulga kelgan yigitni ko'radi va undan o'g'lini ko'rgachgina pulni olib ketishi mumkinligini aytadi. Sanjarni garovga olganlar Obidjon akani yolg'iz kelmaydi deb Sanjarni yuborishgan ekan. Ota o'z o'g'lini pichoqlab o'ldirib qo'yadi! Muallif ushbu fojia orqali

¹ O'lmas Umarbekov. Saylanma. I jild, T., 2002, 375-bet.

qimorbozlik keltirgan daxshatni ifodalaydi va uning ayanchli oqibatini ishonarli badiiy detallar yordamida ko'rsatib beradi.

Muallifning "Ola mushuk" va "Mening o'g'il bola jiyanim" hikoyalari ham qiziqarli va haqqoniy detallar asosiga qurilgan bo'lib, ularda xiyonat tufayli oilada vujudga kelgan iztiroblar va afg'on urushi keltirgan fojia qalamga olinadi. Bular shuni ko'rsatib turibdiki, muallif hayotni sinchkov nigoz bilan kuzatadi. Adib hikoyalarining ta'sirchanligi esa uning o'ta kuzatuvchanligi va detallarni qo'llash mahoratini puxta egallab olganligidan dalolat berib turibdi. Xarakter ma'lum sharoitda, muhitda shakllanadi, taraqqiy etadi, o'zini to'la namoyon qiladi. Sharoit, muhit, obrazli qilib aytganda, xarakterlarni parvozga tayyorlovchi, bugina emas, parvozdan keyin ham ularning uchish tarayektoriyasini tayin etib beruvchi zamin, "start maydonchasidir". Baliqni suvsiz tasavvur etib bo'lmaganidek, xarakterni sharoitdan ajralgan holda tasavvur qilish mumkin emas. Sharoit muhit qobig'iga o'ralmagan xarakter zaminga tegmay havoda muallaq turgan omonat narsaga o'xshaydi, bunday xarakter turgan gap, tugal haqqoniy bo'lmaydi. Shuning uchun ham xarakter yaratishga xizmat qiluvchi detallar haqida gap borar ekan, ayni vaqtda sharoitni ko'rsatuvchi, muhitni xarakterlovchi detallar haqida gapirish kerak bo'ladi.

Xarakter, sharoit haqida so'z yuritish, ayni vaqtda asar syujeti, kompozitsiyasi haqida ham so'z yuritish demakdir. Negaki, bu komponentlar xarakter va sharoitni tashkil etuvchi, ularni me'yoriga yetkazib, to'liq gavdalantiruvchi vositalardir. Bu o'rinda bir-ikki belgi bilan voqea, predmet, olamni yaxlit qamray olishdek sehrli qudratga ega bo'lgan, boy taasurotlar, assotsiatsiyalar tug'diradigan, asar ko'kida cho'lpon yulduzdek yorq etib turuvchi ko'zga tashlanuvchi badiiy detallar haqida to'xtalish, ularning so'z yuritayotganimiz komponentlardagi ro'li, ahamiyatini tayin etish

ahamiyatga molikdir. Shunday badiiy detallar borki, ular asar konflikt, xarakter va sharoit uchun birdek muhim ro'l o'ynaydi.¹

Buni istiqloq davri hikoyanavislari misolida ham ko'rish mumkin. Salomat Vafod, Zulfiya Qurolboy qizi, Mehriniso Qurbonova, Nargiza G'ulomova kabi adibalarning asarlarida kuchli konflikt vujudga keltirib, qahramon va personajlar psixologiyasini, vijdoni, imkoni va insonni elakdan o'tkazgan, voqealar rivojini keskin o'zgartirib yuborgan mana shu birgina "arzimas" detallar emasmi?

Zulfiya Qurolboy qizining "O, Hayot" hikoyasida keksa odam obrazi berilgan. Yoshi yuzdan oshib ketgan, nechaga kirganligi o'zining ham esidan chiqib ketgan, qulog'i eshitishdan, ko'zi ko'rishdan, oyog'i yurishdan, qo'li qimirlashdan qolgan, barcha farzandlari, nabiralari, ayrim evaralari ham o'lib ketgan keksa odam yashamoqda va yashayotganidan xursand. Uning yana ozgina yashashga intilishi, o'limdan qo'rqishini bunday ishonarli, miqyosli berish har qanday yozuvchining ham qo'lidan ham kelavermaydi. Zulfiya Qurolboy qizi ishonarli detallar yordamida o'ziga xos tabiatli odamning o'ziga xos azobli hayotini aks ettira turib, tiriklikning boshqalarga tushunarsiz bo'lgan totli tuyiluvchi jihatlarini mahorat bilan tasvirlagan. Ayni vaqtda, chekka hujrada bir burda bo'lib yotgan cholning o'zlariga kim ekanini bilmaydigan avlod va atrofida g'imirlab yurganlarning birontasini tanimaydigan qariya munosabatlaridagi dahshatli fojia tasviri adibaning inson tuyg'ulari tasvirini nozik idrok etish salohiyatidan dalolat. Bu odamni hayotga bunchalik bog'lab turganligi noma'lum. Ana shu noma'lum kuchni tasvirlash, noma'lum bog'liq jarayonni kechirayotgan odamni ma'lum chizgilarga ifodalay bilish yozuvchi mahoratini ko'rsatadi. Har qanday ayol ham hamisha mehrga, e'tiborga tashna. Salomat Vafoning "Unutilgan ayol" hikoyasida shu tashnalik tufayli bo'yidagi yukni oldirib, ya'ni tug'ilmagan farzandini o'ldirib, qotillik sodir etayotgan ayol holati bolani oldirishday jismonan og'riqli, ma'nan fojiali jarayon tasviri

¹ S. Umurov. San'atning sehrli kaliti. T., 1974, 42-bet.

asnosida nihoyatda mahorat bilan aks ettirilgan. Milliy adabiyotimizda abort potologiyasi haqida yozilsa, yozilgandir, ammo uning psixalogiyasi estetik obyektga aylanganicha yo'q edi. Bo'yidagi yukni oldirgan ayol holati: "Nazarimda, kuz tushgan cho'lining o'rtasida yotardim, osmonda yulduzlar chaman bo'lib ochilgan, vujudim shu cho'l kabi, dunyo kabi qadimiy va bo'sh edi, qonga botgan ko'ylaklarim hilpirar, mangu shamollar hukmron edi bu yerda. Olis-olislardan shamollar uyg'onib kelar, qulog'imga allaqanday qadimiy saslar urilar, nazarimda cho'lmi, osmonmi oh chekib, tegramda aylanar, chapak chalar, sadr tushardi" tarzida tasvirlanadi. Bu tasvirning aynan shu xildagi sababini anglamoq uchun o'quvchi o'z hayolotini zo'riqtirishi, qahramon ruhiy holatini tuyishga urinishi kerak bo'ladi. Shu hikoyaning boshqa o'rnida : "Go'dakning tana bo'laklari mening qonimga cho'milgan, tog'oraning qay burchaklaridir qon qusib yotardi" tarzidagi tasvir berilgan. Aybsiz qotil va gunohsiz maqtul haqida hozircha hech kim bundan o'tkazib aytolmagan. Salomat Vafoning " Qaytish" hikoyasi ham o'ziga xos. Unda ham e'tiborni tortadigan, nazarni mixlab qo'yadigan joylar anchagina.

Istiqlol davri hikoyalari ichida Erkin A'zamning "Navoiyni o'qigan bolalar", "Bizning tog'a", "Ta'ziya" hikoyalarining o'ziga xos o'rni bor. Hikoyada bolaligidanoq izzattalab, viqorli, jiddiy, orqash o'zbek obrazi xarakterli detallar yordamida birda mehr, birda nim kulgu bilan tasvirlangan. Buni hikoyaning quyidagi tarzda boshlanganidan ham bilishimiz mumkin:

"Balki eshitgan chiqarsiz, tog'amizning ismi G'azanafar. Supraqoqdisiga mehri bo'lakchamidi, rahmatli bobomiz uni azza- bazza dabdaba otiga mindirib, erinmay, allanechuk maroq bilan nomini juftlab "Muhammad G'azanafar" deb atardi. Bunday sharafiga munosib ko'rilgan farzandga muomala ham, tabiiyki, o'zgacha bo'ladi: kenja bolam, sen je bolam. Sal kam yuz yil umr ko'rgan ko'hna odamning choponi etagida voyaga yetgan zumrasha ana shu yuz yillik hayot tajribasini sabiylik zehniga bamisoli ohanrabo mahkam joylab olgan, yeti yoshligidayoq yetmish yashar chollardek salmoq bilan mulohaza

yuritadigan bo'lib qolgan edi. Unga dam-badam maslahatlar solinishiga ayting: “Kelasi bozor anavi qisir qo'yni savdoga qo'yibpuliga uch-to'rtta tuvcha sotib olsak, shunga siz nima deysiz, mulla Muhammad G'azanafar?” yoki: “ Mulla Muhammad G'azanafar, bog' etagidagi huv ikki tup olmaning tanasida chimoli ko'rgandek bo'ldim, chirishini kutmay shularning bahridan kechsakmikan dedim....” Xotiringiz jam bo'lsinki, bunday paytda mushtakkina tirmizakdan, muqarrar ravishda, turmush tashvishlarida chiyralib ketgan tajribakor mo'ysafidni-da qanoatlantiradigan bama'ni bir taklif chiqardi”.¹ Hammani o'zi bilan hisoblashishga majbur etishga urinadigan G'azanafar tog'a murakkab va tushunarsiz odam. Umuman odamni tushunish, uning mohiyatini bilish mushkul. Chunki odamzod umr bo'yi birov u yoqda tursin o'zini ham yaxshiroq tushunolmaydi. Shu ma'noda Erkin A'zamning “Tog'a” si tushunish tamomida qiyin bo'lgan o'ziga xos badiiy obraz. Tog'aning bir qadar o'z feli, bir qadar mustaqil, bir qadar badavlat bo'lgani uchungina jiyani Amir bilan bir umr kelishmasligi, unga qasdma- qasdiga ko'shikli imorat tiklashga uringan odam Amirning saroyi o't tushganda o'g'liga atab qurilayotgan ko'shikli imoratini chala qoldirib, yoqtirmaydigan jiyanining vayron bo'lgan binosini tuzatishga kirishishi yumoristik yo'sinda tasvirlanadi. Odam tiynatini anglash mushkul, anglatish undan-da qiyinligi o'zbekka xos ichki bir vallomatlik yog'ilib turgan tog'a misolida yorqin aks etadi. Muhimi shundaki, tog'a timsoli muallif g'oyalarini ifodalash vositasi emas, balki jonli bir odam. Qahramonning har bir xatti- harakati uning mantig'idan, g'alati va boshqalarnikiga o'xshamagan tabiatidan kelib chiqadi. U olamni o'zining ko'zi bilan ko'radi, olam hodisalariga boshqalarday emas, balki aynan o'ziga o'xshab munosabat bildiradi. Ayni shu o'ziga o'xshashligi bilan kitobxonning e'tiborini tortadi. Shu munosabat bilan kishi atrofdagilarni o'ziga ma'qul keladigan sifatlari tufayli emas, balki boricha qabul qilishga odatlanish uchun zarurligini anglaydi. Erkin A'zamning “Ta'ziya” hikoyasida odam va u topingan g'oya zamona va uning yo'rig'iga boorish mashaqqatlari aks ettirilgan. O'zini hammadan ko'ra qiziqroq, dahriyroq

¹ Erkin A'zam. Pakananing oshiq ko'ngli. T., “Ma'naviyat”, 2001, 180-bet.

ko'rsatishga intilgan Salim Qarorning, aslida xudojo'y va taqvodorligi, sirli hayoti, nomunosib hayoti kabi xolatlar asarda ota-bola suhbatdoshlar hamda ovul kishilari munosabati asnosida ko'rsatiladi. Shunisi borki, garchi Salim Qaror hikoyachining xotirasi orqali o'quvchilarga yuzma-yuz keltirilsa-da, unga xos jihatlar birmuncha ta'sirli ko'rsatilgan. E'tiqodini yashirib yurishga majbur bo'lgan, ichi va tashi boshqa bo'lgan qo'rqqoq odam fojiasi hikoyada detallar yordamida ancha mahorat bilan chizilgan. Salim Qaror timsoli faoliyatida chuqurroq ko'rsatilsa, hikoyaning ta'sir kuchi oshgan bo'ladi. Uyg'un Ro'ziyev hikoyalarini o'qiganda inson ruhiyati, uning hayot so'qmoqlarida boshidan o'tkazgan turli kechinmalari, ezgu maqsadlar yo'lida mardonavor kurashi, hayotga, insonga, tabiatga muhabbat kabi muzaffar tuyg'ular, o'quvchini chuqur mushohada etishga dav'at etadigan kechinmalar o'ziga xos uslubda aks ettirilganligiga shohid bo'lasiz. Hikoyalarning har biri sizni turli davrlarga, turli manzillarga, eng muhimi, o'zingizga qaysidir jihatdan yaqin bo'lgan insonlar qalbiga yetaklaydi.

Uyg'un Ro'ziyevning "Tongda qaytgan kaptarlar" hikoyasida kaotarlar detal qilib olingan. Muallif kaptar timsolida quyidagicha ma'lumot beradi: "Kamol kampir haqida o'ylab borardi. Haqiqatdan ham uning onasi o'sha kampirni yaxshi ko'rardi. Ko'pincha non yopganda tandirdan uzilgan issiq nondan bir juftini unga ilinardi. Ba'zan o'zi olib borib berar, gohida Kamolni jo'natardi. Masha xolani buncha yaxshi ko'rasiz deb Kamol onasidan ham so'rab ko'rgan. "Seni tuqqanimda o'sha ayol doyalik qilgan,- degan edi onasi. -Sal bo'lmasa sendan ayrilib qolgan bo'lar edim. U seni ham meni ham o'limdan qutqarib qolgan. Keyinchalik senga qon quyish kerak bo'lganda uning o'zi qon bergan edi. Shunaqa, u odamlardan qonini ham jonini ham ayamaydigan do'xtir edi". Kamol azbaroyi qiziqib, asli o'zbek bo'lmagan bu ayolning bi yerlarga qanday qilib kelib qolganligini ham so'ragan edi. U asli Odessada yashagan. Gitlerchilar urush boshlanganda u hali yoshgina qizaloq bo'lgan. Ularning uyi urush alangasi ichida qolgan. Ota-onasi va yaqinlari ana

shu vayronalar ostida qolib halok bo'lishgan. Shundan so'ng u evakuatsiya qilinganlar qatorida Toshkentga kelib qolgan. Urushdan so'ng tibbiyot texnikumida o'qigan va bayram degan o'zbek yigitiga turmushga chiqqan edi. "Bayram buva ham sodda, oqko'ngil odam edi,- dedi onasi Kamolga ular haqida hikoya qilib berarkan. Masha xolani yuqoridagilar yo'llanma bilan bizning qishlog'imizga jo'natishgan. O'shanda qishlog'imizda endigina kasalxona qurilgan edi. U bilan birga bayram buva ham kelib, maktabda harbiydan dars bera boshlagan. Ularning o'g'li Rustam shu yerda tug'ilgan. Lekin Bayram buva ko'p yashamadi. Urushdan yarador bo'lib kelgan ekan. Shu jarohat tufayli hayotdan ko'z yumdi. "O'g'li-chi, o'g'li, u qanday qilib olgan?- qiziqib so'radi Kamol. U ham urushda o'lgan. Gapni lo'nda qilib qo'yaqolardi onasi. Kamol baribir holi joniga qo'ymay so'rayverardi: Qanaqasi, axir, urush paytida Rustam aka tug'ilmagan-ku? " E bolam , yaqin o'tmishda ham urush bo'lgan. Afg'onistonda bo'lgan. Rustam akang askar bo'lib, ana shu urushga brogan, u yerdan esa unga tirik qaytish nasib etmagan. Bechora o'g'lon, kampirning yakka-yu yagona yolg'iz bolasi edi. Rustamni Kamol ham, Turdi ham yaqindan ko'rmagan. Rustam armiyaga ketganida ular hali kichkina bola edi. Lekin maktabda uning askarlikda tushgan uning kattagina suratini ham har kuni ko'rishadi. Surat yoniga u haqdagi ko'p yaxshi gaplar yozilgan. Odamlar ham Rustam to'g'risida rosa gapirishadi. Turdini qiziqtirgani shuki, Rustam bolaligidan kaptarlarga ishqiboz bo'lgan. Avvaliga uning to'rt dona kaptari bo'lgan, so'ng o'sha kaptarlar o'z- o'zidan ko'payib, hozir o'ttiztagacha yetgan".¹

O'sha kaptarlarni ikki do'st o'g'irlab ketadi. Kaptarlar yo'qolganidan Masha xola qattiq kuyinib kasal bo'lib qoladi va ovqat yemay yotib qoladi. Qattiq iztirobga tushadi. Kampir o'ziga ishonqiramay yana hovliga chiqdi. Baribir kaptarlar ko'rinmadi. Yerga sochilgan donlarni esa chumchuqlar va musichalar cho'qimoqda edi. " Kaptarlar meni tashlab ketishibdi,- deya o'yladi u. Endi shu farishtamonand jonivorlarga ham keragim bo'lmay qolibdi".

¹ Uyg'un Ro'ziyev. Tongda qaytgan kaptarlar. T., "O'zbekiston", 2011, 25-26-betlar.

U telbasifat gandrakladi. Yana ichkariga kirib, o'rniga cho'zildi. Eridan ham, o'glidan ham ayrilgach, ana o'sha kaptarlar kampirning suyanchig'i bo'lib qolgan. U o'sha qushlar bilan tillashib, hasratlashib kun o'tkazib kelayotgan edi. Ular bilan gaplashganda u ro'parasida shunchaki qush emas, o'g'li turgandek tuyilaveradi. Rustam shu kaptarlarni jon - dilidan yaxshi ko'rar, ularga atab inlar yasagan edi. "Kaptarlar tinchlik bor joyda uchadi, bolam kaptarlaringni boriga shukr, -der edi kampir ularning uchishini ko'rganda".¹ Onasi bergan ikkita issiq nonni Masha xolaga olib kirgan Kamol uning dong qotib yotganini ko'rib qo'rqib ketadi. Qo'lidagi nonni xontaxta ustiga qo'yib, yugurgancha ortiga qaytadi. "Masha xola o'lib qolibdi deb o'ylaydi u. Agar kaptarlari o'lib qolgani alamiga o'lgan bo'lsa-chi? U holda uni biz o'ldirgan bo'lib chiqamiz. Nima qilib qo'ydi-ya bu landavur Turdi". Kamol shunday iztirobli o'ylar bilan kampirni kaptarlarini olib kelib, uyiga qo'yib yuboradi. Kaptarlarning ovozini eshitgach, Masha xolaning allaqachon murdaga aylangan tanasiga jon kiradi".

Muallif kaptarlar detali orqali kitobxonni xatosini anglab, to'g'ri yo'lga tushib olishiga, odamiylikka dav'at etadi.

Uyg'un Ro'ziyevning " Ramazonning o'n beshinchi kuni", "Ovchining so'nggi o'qi", "Notinch ruh", "Ozodlik", "Sir saqlangan shaharcha", "Chorievning yangi yili", "Lochinning bolalari kabi hikoyalari ham mavzusining dolzarbligi, badiiy detallarning qo'llanilishi bilan alohida ajralib turadi.

¹ Uyg'un Ro'ziyev. Tongda qaytgan kaptarlar. T., " O'zbekiston", 2011, 29-bet.

III BOB ADABIYOTNING BOSH TASVIR OB‘YEKTI

I Fasl Hikoyachilikda inson ruhiyati manzaralari

Go‘zallikning rang- barang ko‘rinishlari mavjud. Zulmat pardasini tilib, ko‘kka hamla qilgan mushakning ming bir parchaga bo‘linib tovlanishi ham, metin yerni teshib chiqib, quyosh sari talpingan va xandon otib turgan gullar ham go‘zal. Ammo tun bag‘riga sochilib, erib va bir lahzada so‘ngan mushakning go‘zalligi bebaxodir. Gulning go‘zalligida esa unga nur va suv bergan hayotning abadiy go‘zalligi mujassam.

Atoqli so‘z san‘atkori Abdulla Qahhor hayotni nozik aytish mumkinki, shoirona nigoh bilan kuzatar ekan, ana shunday ajoyib xulosaga kelgan. Adibning ana shunday nafis mulohazalariga boy qaydlarini o‘qir ekansiz, ijodkor uchun u adib, musavvir yoki bastakor bo‘ladimi hayotni, tabiatni, kishilarni kuzatish san‘ati qanchalar inja bo‘lsa, uning asarlari shunchalik yuksak san‘at na‘munasi darajasiga erishadi degan hayolga borasiz. Shunda badiiy tafsil va undan foydalanish san‘ati badiiy mahoratning asosiy omillaridan biri bo‘lib tuyiladi.

Darhaqiqat, hayotni kuzatish, voqelikda kechayotgan jarayonlarga haqqoniy va xolisona munosabat bildirish, balki xalq tili va dilining tarjimoni bo‘lishga intilgan adibgina haqiqiy ijodkor bo‘la oladi. Hozirgi o‘zbek adabiyoti na‘munalarini o‘qigan kitobxon G‘afur G‘ulom, Oybek va Abdulla Qahhorlar avlodi ijod maydoniga kirgan vaqtda Abdulla Qodiriy, Fitrat va Hamzaning ijodiy jasorati bilan zamonaviy jasorati bilan zamonaviy nasr, she‘riyat va dramaturgiya shakllanib ulgurgani, boy tajribaga ega bo‘lgan jahon adabiyotiga esa endigina darcha ochila boshlaganini bilmasliklari mumkin. Vaholanki, XX asrning boshlariga kelib, faqat milliy an‘analar hisobiga o‘zbek adabiyotini rivojlantirish uni jahon adabiy jarayonining tarkibiy qismiga aylantirish amri mahol edi. Masalaning murakkab tomoni shundaki, o‘zbek yozuvchilarining har ikkala avlodi Yevropa xalqlari tillarini va shu tillarda

ijod qilgan yozuvchilarning har ikkala avlodi Yevropa xalqlari tillarini va shu tillarda ijod qilgan yozuvchilarning badiiy tajribasi va ijodiy yutuqlari bilan bevosita tanishish imkoniyatiga ega emas edi. Ammo o'sha paytda adabiy aloqalarning yo'lga qo'yilganligi va aksar jahon mumtoz va zamonaviy jahon adabiyoti durdonalarining rus tiliga tarjima qilinganligi yozuvchilarimiz oldida turgan vazifani bajarish imkonini berdi.

Gogol, Chexov singari rus yozuvchilari va jahon mumtoz adabiyoti durdonalari bilan tanishish yozuvchilarimizning bir-hillikdan qochishga, yangi ijodiy ifqlarni zabt etishga ilhomlantirdi. Natijada ortiqcha bezak va bayonchiliklardan holi, siqiq, o'ziga xos boshqalarning uslubiga o'xshamagan uslub va shakllarda ijod qiladigan ijodkorlar avlodi yetishib chiqdi.

Mustaqillik davriga kelib esa ana shu keksa avlod hayot maktabida tahsil olgan umidli qalamkashlar o'zlarining yangi-yangi asarlari bilan maydonga chiqdilar. Bugungi kun hikoyachiligimizda ko'zga tashlangan va e'tiborga sazovor narsa shundaki, bugun adabiyotning bosh tasvir obyekti bo'lib inson maydonga keldi. Natijada istiqlol davri hikoyachiligida yaratilgan asarlarda inson va ruhiyat manzaralari o'z aksini topa boshladi. Siz bilan bizning yonginamizda yurgan, oramizda yashayotgan o'zbek bobolar, to'p o'yin, quloqcho'zma kabi bolalar o'yinlarini o'ynayotgan bolalar, kattagina tumanni boshqarayotgan hokim buva va ichki ishlar tizimida mehnat qilayotgan ajoyib insonlar hikoyalarning qahramonlariga aylandilar.

Hikoya janri esa bu janr tabiatini chuqur his etgan va muayyan adabiy tajribaga ega bo'lgan kishilarning ko'ngil ishiga, sevimli yumushiga aylandi. Buni adabiyot maydoniga kirib kelayotgan bir qator yosh ijodkorlarning asarlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Nargiza O'sanboyevaning "Ishq va anduh og'ushida" asari hayotiy voqea asosida qalamga olingan bo'lib, Ibrat va Shirinning tanishuvi, ularning

go'zal va betakror muhabbati, turli to'siq va sinovlardan keying to'y va oilaviy baxti tasvirlanadi.

Afsuski, hayot tekis emas, ularning turmushi kutilmagan avtohalokat tufayli ostin-ustun bo'lib ketadi. Shirin og'ir avholda shifoxonada ko'z ochadi. Xo'sh, avtohalokat uni sevimli insoni Ibrat va jondan aziz qizalog'i orzudan ayiradimi?

Asar avtohalokat voqeasi bilan boshlanganligiga sabab, oxiriga qadar voqealar o'quvchiga voqealar rivoji tinchlik bermaydi. Bundan tashqari qissada aks etgan ayol makri, ota-ona sabri, xalqona irim-sirimlar, milliy urf-odatlar, er-xotin munosabatlari, muhabbatning o'zgacha ko'rinishlari kitobxonni befarq qoldirmaydi. Nargiza O'sanboyevaning ijodiga taniqli yozuvchi Shoyim Bo'tayev katta baho berib quyidagilarni yozganda haqli edi:

“Ko'ngil sir asrorlari, inson fenomeninig murakkabliklari aks etgan asarlarga kitobxonni o'ziga jalb etadi. Uning ayrim asarlarida “Doka ro'molning qurishi” qahramonlari muallifning izmidan chiqmay, uning yatovida yursa, ayrimlarida “Ishq va anduh og'ushida” muallifning ishtroki unitiladi, voqelikning o'zi haqida g'ussali qissa so'ylay boshladi. Muallif kechayotgan jarayonlarni nazorat qilar ekan, o'rni kelganda xalqning azaliy urf-udumlari, an'analarini o'z asariga sihgdirib yuboradi.

Kitobxonda iliq taasurot uyg'otadigan lavhalarni adiba o'z joyida qo'llaydi. Nargiza O'sanbayeva ilk asarlaridayoq o'zining iste'dodini namoyish eta oladi. U katta yo'l boshiga chiqdi. Eng muhimi, o'z qalbini yo'qotmasa, har qanday san'atkor ko'zlangan manzilga yeta olishi muqarrarligi isbotini hayotning o'zi tekshirib kelgan”.¹ Yozuvchi Anvar Nomozov esa Nargiza O'sanboyevaning ijodi haqida iliq fikr bildirib, quyidagilarni yozadi:

“Sevish uchun sevish baxtiga muyassar bo'lmoq kerak. Odamlar muhabbatga ishonganligi uchun emas, uni o'zlari boshidan o'tkazganlari uchun

¹ Shoyim Bo'tayev. N. O'sanboyevaning “Ishq va anduh og'ushida” kitobiga so'z boshi. T., 2013, 3-bet.

ham baxtiyordirlar”- degan edi F. Laroshfuko. Darhaqiqat, sevisb baxti har kimga ham nasib etavermaydi. Uni boshidan o'tkazgan, bunday kechinmalarni tubdan his qilgan insongina sevisbga sazovordir. Shu bilan birga sevilish baxti ham bor. Men Nargizaning asarida ana shu hikmatning inikosini ko'rdim. Qahramonlar hayoti keng qamrovda aks etgan mazkur sevgi qissasi o'ziga xos tili, voqealar silsilasi, kutilmagan hodisalari bilan o'quvchini maftun etadi. Xususan, Shirindagi soddalik, beg'uborlik, shaddodlik, o'rniga kelsa, o'ziga yarasha tantiqlik ishonarli tarzda namoyon bo'ladi. Zotan, adabiyotdagi eng muhim omillardan biri ham o'quvchini ishontira bilishdir. Muallif Shirinning fe'l-atvorini ochishda bayonchilikka ko'p berilmay, dialoglardan foydalangani tahsinga sazovordir. Bunday muloqotlar juda o'rinli qo'llanilgan. Alxusus, adabiyotdagi qandaydir daqqiyunusdan qolgan uslublardan ko'ra, Nargiza O'sanboyevaga xos yondashuv o'quvchini zeriktirmaydi. “Ishq va anduh og'ushida” asari eski qoliplardan holi voqealar o'zani keskin burib yuborilgani bilan ham qimmatlidir. Asardagi voqealar bugungi va kechagi kun bilan yondosh tarzda yoritilganiga guvoh bo'lasiz. Unda quvonch, shodiyona ham, iztiroblar ham o'zaro almashinib qo'llanilaveradi.

..... Ayniqsa qahramonlarning holati turli orginal o'xshatishlar tufayli muvaffaqiyatli chiqqan: “Boshimning ichiga samolyot kirib kelayotgandek, tavba... Ovozdan qutulish uchun boshimni u yon, bu yonga urdim. Ming azob bilan, ko'z o'ngimda buralib borayotgan shaffof yo'lni yaxshiroq ko'rish uchun bor kuchimni sarfladim...”

“ Oppoq, ammo qo'rqinchli bo'shliq” “ Boshqa hech narsa qulog'imga kirmadi. Nima haqda gaplashdik, nimalar dedim,o'zim ham bilmayman”

Bunday o'ziga xos o'xshatishlar inson holati, kayfiyati ruhiyati o'quvchi ko'z o'ngida ochib beriladi. Garchand qahramondagi holatlar tushuniksiz, mavhum bo'lsa-da, so'zlar yordamida tasavvur hosil qiladi.

Marhum yozuvchimiz Omon Muxtor bir vaqtlar shunday degan edi: “O’ylash o’ylash kerak. Qanday yozish, nima deb yozish, voqealar rivoji qay tarzda kechishini o’ylab, kallada pishitish kerak. Zotan, bu adabiyot”.

Nargiza ham yuqoridagi jummalarni yozish uchun ne fursatlarni ketkazib, o’ylagan bo’lsa ajab emas. E’tibor bering: “oppoq /ijobiylik/, ammo qo’rqinchli /salbiy tus berilgan/”. Xuddiki asar nomidagi “Ishq va anduh og’ushida” ga o’xshab!

Asarda voqealar rivojlanib boradi. Qahramon qizning yuragidagi g’alayonlar, qalb kechinmalari, dardi dunyosi bor bo’yi bilan namoyon bo’ladi, u yigitni sevib qolgan. O’zbek qizi uchun eng shirin...azob bu! Nima qilsin, o’z tuyg’ularini oshiq yigitga ayta olmasa? Bu jarayonni yetkazib berish ham oson emas. Muallif Shirinning tilidagini emas, balki dilidagini ochib bermog’i, qalbidagi kechinmalarini oshkor etmog’i zarur. Voqealar asta-sekin rivojlanib boradi. Ahdu paymon, tuf...Shu asnoda ma’lum hududga xos urf-odatlar, an’analar ham sanab o’tiladiki, bularning hammasi qahramon tilidan bo’lgani bois, “hujjatlilik” kasb etmaydi. Hayotda aksar hollarda shunday: ne azobda murodu-maqsadingga yetib, shirin turmush kechiraman deganingda bir “ishkal” chiqib turadi. “Ishq...”- da boyaqish shirin yillar o’tgan sayin quvonish, shirin hayotidan lazzatlanish o’rniga siqilib, noxush xayollarga boradi. Iztiroblarning eng kattasi esa farzandsizlik bilan bog’liq.

Nihoyat o’n yil deganda, farzand dunyoga keladi, biroq xiyol o’tmay, yana kulfat, jabr-jafo. Yuqorida keltirib o’tilgan holatlar sababchisi bo’lmish avtohalokat! Qalb qiynoqlari jismoniy azob-uqubat bilan qorishib ketadi.

“Onajon!- ovozim zaif va dardli chiqdi. Jonim og’riq iskanjasida, azobda edi. –Jonim og’riyapti...” Naqadar ta’sirli ! Joning og’riganida onangni chorlasang, onang besh battar azob chekadi.

“Bolajonim!.. Senga kelgan balo menga ursa bo’lmasmidi...”

Shirin ikki dunyo oralig'ida yurgach, Ibratni so'raydi. Ishq va anduh. Insonsan chidaysan! Ammo... bir umrga kulfatlarga muhtalo bo'lib o'tadimi kunlaring?

“Nima bo'lganida ham chidaysan. Sevish va umid qilmoq, sevilish va kutmoq kerak. Xuddi Shirin kabi... Ana shunda u o'zining Ibrati bilan ibratli hayot kechiradi...”¹

Ana shunday asarlar muallifi Nargiza O'sanboyevaning “So'nggi o'g'irlik”, “O'lim farishtasi bilan uchrashuv”, “Xorijlik kelin”, “Tavba”, “Uni dada deysanmi, qizim?”, “Tuxmat toshi”, “Umr so'ngidagi tilak”, “Yerdagi jannat”, “Chiptachining taqdiri”, “Yosh bevachining sovchilari”, “Qor parchalari” kabi hikoyalari ham ularda o'rtaga tashlangan mavzuning dolzarbligi, detallarning o'z o'rnida qo'llanganligi bilan e'tiborga molikdir. Chunonchi, uning “Soliqchi qizning bir kuni” hikoyasini olib ko'raylik, hikoyada keltirilishicha, tumandagi do'konlarning birida ikkinchi marta qonunbuzarlikka yo'l qo'yiladi. O'tgan safar soliqchilar eng kam ish haqqining 50 baravari miqdorida jarima solishgan ekan. Olti oy o'tmay do'konchilar yana o'yin qilayotganligi, terminal buzilib qolayotganligidan shikoyatchilar ko'payib ketganligini aytadi. Do'kon sotuvchilari oz miqdordagi xarid uchun esa plastic kartochkani qabul qilmaydi. Soliqchi qiz tekshirish uchun do'konga borgach, voqea haqiqatdan ham shikoyatda keltirilganday ekanligi aniqlanadi. Soliqchi qiz bu haqda dalolatnoma tuzadi va sotuvchini “Sizda plastic kartochkadan qonuniy foydalanishning iloji bo'lmayotgandek, bizda ham iloji yo'q. Qachon qonunbuzarlikka chek qo'yasiz, biz ham tinch qo'yamiz. Soliq kodeksining 119-moddasi, I -qismida nazarda tutilgan harakatlar jarima qo'llanilgandan keyin bir yil ichida sodir etilganda eng kam ish haqqining 75 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima solinadi. Sizda huddi shunday. Bir yil ichida ikki marta qonuni buzyapsiz. Qancha jarima to'lashni mendan yaxshi bilsangiz kerak?”² deya ogohlantirib

¹ Anvar Namozov. Sevish va sevilish baxti. N. O'sanboyevaning “Ishq va anduh og'ushida” to'plamiga qo'shimcha so'z boshi. T., 2013, 5-6- betlar.

² N. O'sanboyeva. Ishq va anduh og'ushida. T., 2013, 304-305-betlar.

qaytadi. Oradan bir hafta o'tib, soliqchi qizni boshlig'i chaqirib "Po'lat ota" dagilar sening ustingdan shikoyat qilishdi. Aytishlaricha, sen hujjatga ism-sharifini kiritib, imzo chektirgan sotuvchi o'sha kuni do'konda bo'lmagan ekan. Buni isbotlab ham berisharmish. Seni tuxmat qilishlikda ayblashyapti deb ogohlantirdi. Soliqchi qiz o'sha kuni sotuvchidan shaxsini tasdiqlovchi hujjatini so'ramay dalolatnoma tuzganligini tan oldi. Va yana "Po'lat ota" do'koni qaydasan, deya yo'lga tushadi. Aniqlanishicha, haqiqatdan ham o'sha kuni dalolatnomada qayd etilgan Botir Eshonqulov ishda bo'lmagan, otasi betob bo'lib qolgani uchun shifoxonaga olib borib yotkizgandi. Do'konda savdo qilayotgan mudirning o'g'li esa o'yin qilib o'zining ismi-sharifi o'rniga Botir Eshonqulovning nomini aytib jazodan qutilib qolgan bo'lgan. Buning ustiga soliqchi qizni tuxmatchilikda ayblayotgan edi. Biroq qallob savdo xodimi Farhod bir narsani – dalolatnomaga "Farhod Madaliyev" deb o'z qo'li bilan imzo chekkanligini unutib qoygan edi. Botir Eshonqulov soliqchi qizga qo'rqmasligini, yordam berishini aytadi. Biroq bunga hojat yo'q edi. Chunki dalolatnomada qallob Farhodning imzosi manaman deb turardi. Ertasi esa Botir Eshonqulov soliqchi qizning ishxonasiga gul ko'tarib keladi. "Xullas natijasi ma'lum".

Nargiza O'sanboyevaning "So'nggi o'g'rilik" hikoyasida shunday detal bor:

"To'g'risi o'g'irlikka kirgan odamni hamma narsa kutishi mumkin. Ammo bunaqasi...Ko'z oldimga besh yil oldin, o'lim to'shagida yotgan dadam keldi. Xona to'ridagi karavotda rangi sap-sariq, ozg'in, ammo qorni do'mbiraday shishib ketgan yoshgina yigit yotardi. U yonidagi xontaxtaga cho'zilib qorni xalaqit berib piyolani ololmasdi. Yuragim orqaga tortib ketdi..."¹ Xullas hikoyaning mazmuni shunday: O'g'irlikka kirgan yigit bemor yigit Mirolim bilan shu tarzda tanishadi. O'g'ri yigitga piyolani tutqazadi. Yigit rahmat aytib, suvni og'ziga olib so'ng qaytarib tuflaydi. U ro'zador edi. Bu

¹ N. O'sanboyeva. Ishq va anduh og'ushida. T., 2013, 181-bet.

og'rini hayratga soldi. Bemor yigit bilan yaqindan tanishib, uning holidan xabar olib turadi. Yigit esa mo'jiza tufayli tuzalib ketadi. Unga o'g'ri yigit yordam beradi. Kunlardan bir kuni o'g'ri yigit unga ta'mirlatgani bergan do'konlaridan birini unga berishini aytib, birga ishlashni taklif etadi. Bunga o'g'ri yigit jon-jon deb rozi bo'ladi va o'g'irlikdan qaytadi. Nargiza

O'sanboyevaning "O'lim farishtasi bilan uchrashuv" hikoyasida ham detallardan ustalik bilan foydalangan. Hikoya qahramonning do'sti Rahmon to'satdan vafot etadi. "Rahmonning topish-tutishi yaxshi edi. Shaxsiy biznesi kundan-kunga rivojlanib borayotgandi". U biznesini yuritish maqsadida birovdan 15 ming dollar qarz oladi. Lekin orzusini amalga oshirolmay, to'satdan vafot etadi. Do'stining onasi undan Rahmonning mashinasini ta'mirlatib sotishini, birovdan olgan o'sha 15 ming dollarni qaytarishi kerakligini aytadi. Chunki pul izsiz yo'qolgan. Mashinani ta'mirlatishga bergan Rahmonning do'stiga usta qog'ozga o'ralgan pulni qaytaraverdi. Do'sti esa shayton aravasiga uchib bu pulni "Mashinani o'zim sotib olaman" deb uning onasiga olib borib beradi. Do'stining mashinasini minib yurganda orqa o'rindiqqa usata Rahmon o'titganday tuyilaveradi. Uning vijodoni qiynalib ketadi va oxir oqibat avtohalokatga uchrab og'ir ahvolda shifoxanaga tushadi. U o'lim farishtasi bilan yuzma-yuz kelib, qilgan ishidan pushaymonligini aytib alahsiraydi. Xushi o'ziga kelgach, rafiqasidan do'stining onasi Roziya xolani chaqirib kelishini so'raydi. Lekin Roziya xola esa bemorning boshida o'tirgan edi. Bemor ming andisha bilan xoladan qilmishi uchun uzr so'raydi. Lekin Roziya xola ularni bilishini aytib "O'sha paytayoq seni kechirganman. Sog'ayib ketsang bo'ldi deb" duo qiladi. Muallif bu yerda o'zbekona bag'rikenglik, mehr-oqibat kabi sharqona qadryatlarimizni juda chiroyli va ishonarli qilib tasvirlab beradi. Unga shubhasiz bu borada badiiy detallar yordam bergan va muallifning g'oyani ochib berishiga zamin yaratgan.

N.O'sanboyevaning "Tavba" hikoyasi iqtidorli xirurg-onkologning boshidan kechirgan sarguzashtlari haqida. "O'sha kunlarni eslasam haliyam

dahshatga tushaman. Yuragim orqaga tortib ketadi. Jinni bo'lib qolmaganimga shukr qilaman. Parvardigor dard bersa, shifosini ham berishga o'shanda ishonдим”, deydi hikoya qahramoni. Uning bunday deyishiga asos bor edi. U o'zi jarroh- ankolog bo'la turib o'g'li Umidjonning tomog'i og'rishlariga beparvo qaraydi va o'tib ketar deb yurib, endigina o'n beshga kirgan o'g'li saratonga chalinganini bilmay qoladi. Ertasiga o'g'lini shifokorga olib borib, hamkasbi Komiljondan o'g'lini barcha tekshiruvlardan o'tkazib kelishini iltimos qiladi. Tekshiruv natijalarini ko'rgach, xushi boshidan uchib, o'limiga rozi bo'lib ketadi. “O'zim shifokorman! Ko'r, kar shifokorman! Yolg'izgina bolam ko'z o'ngimda qizilo'ngach saratoni bo'lib o'tiribdi, bilmadim! Dehqon cho'pon bo'lганиmda ham alam qilmasdim! Boshlang'ich bosqich bo'lsa ham mayli edi? Nima qilay, ayt! Nima qilsam uni asrab qolaman? Asrab qolish mumkinmi, o'zi? Nega bunday bo'ldi? Hali yosh edi-ku! Nima uchun? Kechadan buyon bo'g'zimga tiqilib yotgan otilib chiqdi. Men Komilni quchib yig'lay boshladim. U meni ovutolmasdi. Men bir omi, savodsiz bo'lsam ekan, ovutsa... Afsus, men hammasini bilaman... Bechora o'g'lim shu paytgacha qancha azob chekkan....Men g'ofil banda... Nega bilmadim? Nega sezmadim?”¹

Tinimsiz

iltijolar, ikki bor o'tkazilgan operatsiya, hojilar olib kelgan zam-zam suvdan ichish, qatiiy parxez va duolar, shifokorning tavba – tazarrusi oz samarasini berib o'g'li Umidjon tuzalib ketadi. Muallif hikoya so'nggida halillik haqida ikki og'iz so'z yozadi: “Hozir u yigirma ikki yoshda. Uylantirish taraddudidamiz. Uning xastaligi menga katta ibrat bo'ldi. Hozir bemorlarimdan hech narsa talab qilmayman. Qilgan gunohlarimdan tavbadaman. Halol topganim mablag'imdan shu yil Xudo xoxlasa, Haj safariga borib kelmoqchimiz. Bu ham amalga oshishiga ishonaman. Inshoalloh! ...”²

Nargiza O'sanboyeva hikoyalaridagi bunday holatlarga yana ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Muallif hikoyalarida qo'llangan har bir detal

¹ N. O'sanboyeva. Ishq va anduh og'ushida. T., 2013, 215-bet.

² O'sha yerda, 220-bet.

ustida qunt bilan ishlagan. Nargiza qo'llagan detallar asar qahramonlarini chuqur o'yga toldiradi, yuragini iztirobga soladi, hayoti, qadr-qimmatini kelajagi haqida o'ylashga turtki bo'ladi. Boshqa detal esa qahramonning ezgu ishga qo'l urishiga, o'z yo'lini topib olishiga, xatosini anglab yetishiga sababchi bo'ladi. Shunday qilib birgina detal hikoya konfliktida yordamchi tugun hosil qiladi, bu konflikt xarakterlararo to'qnashuv tarzida emas, qahramonning ruhiy kechinmalari, uning o'zi bilan o'zi kurashishi tarzida namoyon bo'ladi. Bosh qahramonlar va ayrim personajlar xarakterining muhim qirralarini ochish, sharoitni ta'rif-tavsuf etishda salmoqli ro'l o'ynaydi. Ma'lumki,

konflikt xarakterlararo to'qnashuvda va qahramon personajlarining o'z-o'zi bilan "kurashuvi", murakkab ichki kollizitsiyasi tarzida namoyon bo'ladi. Bizningcha, qahramonlarning ichki kollizitsiyasi asosiga qurilgan asarlarda, jumladan, hikoyalarda goh qahramon qalbida og'ir iztirob, goh dard-alamlar tug'yon uradi. Ana shunday hollarda yozuvchiga yaxshi topilgan detal yordamga keladi. Bunday hikoyalarda dastavval xarakterli badiiy detallar qahramon va personajlar qalbiga "darcha" ochib, unda mavj urayotgan hissiyotlar oqimini kitobxonga ko'rsatishda o'ziga xos konflikt tuguni hosil qiladi va tugunni rivojlantirib borishda muhim ro'l o'ynaydi.

II Fasl Badiiy detalning qudrati haqqoniyligidadir

Safar Kattaboyev uzoq yillardan buyon prokratura organlarida ishlab keladi. Hayotni doimo ijodkor sifatida kuzatadi. Turli vaziyatlarga tushgan shaxslar qiyofasida avvalo inson taqdirini ko'radi, badiiy obrazlarni talqin qilishda qahramonlari tabiatidagi o'ziga xos jihatlarni nozik his etadi. Muallif bilib-bilmay jinoiy harakat sodir etib qo'ygan qahramonlari hayotini, ruhiyatini yaxshi biladi. Ularning fojiasini chuqur badiiy tahlil eta oladi. Mavhum holatlarda sodir qilingan qotilliklar qanday fosh etiladi? Ularni kimlar, nima uchun sodir qilgan? Barcha detektiv asarlarga xos bo'lgan ushbu savollar xususida professional huquqshunos yozuvchi sifatida badiiy mushohada qiladi. Muallif buning uchun badiiy detallardan o'rinli foydalanadi. Ma'lumki, butun voqealar asarda qo'llanilgan asosiy detal asosida yuz beradi. Yozuvchining qudratli qalami ostida birgina detal qancha-qancha personajlarni aniq xarakterlaydi, muhitni haqqoniy tasvirlashga yordam beradi, asarni ojiz kishilarga nisbatan shafqat, salbiy qahramonlarga nisbatan nafrat hissi bilan sug'orishga xizmat qiladi. Chunki har bir detal yozuvchining maqsadiga ko'ra asarda personajlarning xatti-harakati, psixalogiyasidagi o'zgarishlarni qayd etib boradi, muhitni harakterlab, asar kompozitsiyasini bir nuqtada tutib turadi. Muallif ba'zan o'quvchining voqealarga qiziquvini orttirish uchun detalni ataylab sir tutadi.

Mohir san'atkorlar o'z asarlarida biror narsa yoki hodisani tasvirlar ekan, uzundan-uzoq gap so'zlarga, ortiqcha tafsilotlarga berilmasdan, bir-ikkita qisqa, mo'ljalga to'g'ri uradigan detallar ishlatib, o'sha narsa yoki hodisani mohiyatini ochib berishadi. Detallar orqali qisqalik, mazmundorlikka erishishda yozuvchi oldida yana bir yaxshi imkoniyat bor. Bu o'quvchiga tayanish, u bilan hamkorlik qilishdir. O'quvchiga ishonish, uni ijodiy hamkorlikka, faollikka chaqirish, masalan to'g'ri qo'yib, hal etishni, hukm chiqarishni unga havola qilishda ham detalning alohida o'рни bor. So'zga xasis, fikrga sahiy san'atkorlar asarlarida ayrim detallar oxirigacha aytilmagan gaplarning tagiga

yetishga, boshlab berilgan obrazni xayolda tamoman chizishga imkon beradi.¹ Safar Kattaboyevning asarlarida ana shunday holni ko'rish mumkin. Muallifning "Qotillikda ayblab bo'lmaydi" hikoyasida kanalda oqib kelgan o'lik jasadi detail bor. Jasad ayol kishiniki bo'lib, unga bir yarim metr keladigan betonstalba bog'lab, suvga tashlangan. Qotillik sodir bo'lgani naq ko'rinib turibdi. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi va prokratura xodimlarining savoli bitta. Marhuma qayerdan va kim bo'lishi mumkin? Muallif shunday qilib, kitobxonni jinoyat sodir bo'lgan manzilni, uning shaxsini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan voqehodisalar sari boshlaydi. Lekin bu aytishga oson. Boisi na marhuma, na qotillikda gumondorlar haqida zarracha ma'lumot yo'q. Hikoyada jasad bog'langan stolbacha, jasadning beli bog'lan yo'g'on sim, bo'yin va oyog'i bog'langan lattalar kabi har bir detallar jinoyat qidiruv xodimlarining e'tiborda bo'lishi tasvirlangan. Chunki bunday mayda-chuyda narsalarning har biri jinoyatni ochishda katta ro'l o'ynashi mumkin. Hikoyada jinoyat-qidiruv xodimlarining ne mashaqqatlar bilan marhumaning shaxsini va uni o'ldirgan qotillarning shaxsini aniqlashlari ishonarli tarzda hikoya qilinadi. Buning uchun ular ne-ne chig'iriq sinovlarni boshdan kechirmaydi deysiz. Bir necha misollarga murojat qilamiz: "Endi jinoyat ochilar? Toqatsizlarcha uni savolga tutamiz. Qoracha qiz esa savollarga istar-istamas javob bermoqda. Tezda prokraturaga keltirilganidan hayajonda. Nimanidir yashirishga harakat qilayotgani ko'rinib turibdi. Qiziq, Oyjamolning o'ldirilganini bilarmikan? Menimcha, nimanidir sezdi, chunki Oyjamolning opasi oq ro'mol va ko'kish ko'ylakda, bir alfozda, rang-ro'yi esa qandaydir voqea bo'lganini bildiradi, ammo so'rolmayapti".²

Yoki:

"Demak, birdaniga yashash joyini o'zgartiryapti. Faqat vrachning ijara haqini so'rab bezor qilaverishimikin yoki boshqa jiddiyoq sabab ham bormikin? Yoki Oyjamolni shu xonada o'ldirgach, tezda joyini o'zgartirdimikan? Oyjamol faqat ust kiyimlari bilan topildi, qo'lidagi "Lodka" tillo uzugi, bo'ynidagi yarim oy va

¹ S. Umirov. San'atning sehrli kaliti. T., 1974, 54-bet.

² Safar Kattaboyev. G'alati o'g'ri. T., 2005, 73-bet.

yulduzcha tasvirli tillo zanjiri, qulog'idagi barg shaklidagi xalqalar topilmayapti. Shuningdek yana bir oq-qora yo'l-yo'l yubkasi, poshnasi qo'porilgan oq rangli tufli, o'ziga kerakli sochiq, sovu tish pastasi va xakazo shaxsiy narsalari, pasporti, bileti sumkasi ham yo'q".¹

Ana shunday mashaqqatli so'rab-surushtiruvlar tufayli jinoyatchi topilib, tegishli jazosini oladi. Safar Kattaboyevning "Oriyatli daydi" hikoyasi ham bir jinoyat tarixi haqida. Hikoya syujeti "Goh mast, goh xushyor yuradigan Maryaning daf'atan ko'rinmay" qolganidan boshlanadi. Odamlarning chaqiruvi bo'yicha kelgan "Uchastkavoy" derazani ochib panjara orasidan uy ichiga qarab, uy egasining karavotda jonsiz yotganligini ko'radi: Lekin u ham uyga kirishga shoshilmadi. Kim bilan qanday vaziyatda o'lgan. U ajali bilan o'lgan taqdirda ham qancha-qancha yozuv-chizuv qilish kkerak. Yaxshisi prokraturaga xabar qiladi. Shu bilan uning vazifasi tugaydi. Hamma qog'ozbozlik uning zimmasiga tushadi. Murdani nima qilish kerakligini ham o'zlariga belgilashadi. Kim biladi, ehtimol, birov o'ldirib ketgandir. Sopp-sog' yurgan odamning birdan o'lib qolishi shubhali-da".²

Muallif shu tariqa marhumaning jasadi bo'lgan detal orqali qotillik tarixini ochib beradi. Qotil esa Mariya bilan bir uyda yashab, u bilan tuz – na'mak bo'lgan daydi ayol edi. Shu o'rinda muallif uning ruhiyatini quyidagi holatlar orqali ochib beradi:

-Sizni tushundim. Demoqchisizki, sen o'zing kimsan, bir daydi bo'lsang, seni birov haqorat qildi nima-yu, qilmadi nima, indamay yelkangni qisib ketaversang bo'lardi-ku demoqchisiz. To'g'ri, shunday qilsam ham bo'lardi. Ammo inson tabiati shundayki u kim bo'lishidan qatiiy nazar, hatto bizdek eng past tabaqadagi odamda ham or-nomus baribir saqlanib qoladi. Daydi o'zini boshqa daydi bilan solishtiradi. Agarda meni o'zimdan ziyodaroq odam haqorat qilsa, indamay ketardim. Men-ku qamalib, odamdek yashay olmadim. U esa biron marta ham durust turmush quolmagan. Ichaverganidan erkaklar bezor bo'lib tashlab

¹ Safar Kattaboyev. G'alati o'g'ri. T., 2005, 83-bet.

² O'sha joyda, 105-bet.

ketishgan. Farzandim ham yo'q. Mening esa har holda orqamdan zurriyodim qolyapti. Demoqchimanki, Mariyaning mendan ortiq joyi yo'q. Shunday bo'lsa-da, unikida yashash uchun men uning kiyimlarini yuvar, kosa-tovoqlarini tozalar, kuchim yetganicha xizmatini qilar, ammo bir burda nonimni ko'chadan tilamchilik qilib, o'zim topib kelar edim. Bularni avval ham sizga aytdim. U yaxshilik bilan menga javob berib yuborsa bo'lardi-ku. Yo'q, o'zini baland tutib, meni hech bir sababsiz haqoratlashga tushdi. Javobini esa oldi. Unga shu kerak shekilli. Tilidan, xarakteridan topdi, qisqasi, bu taqdir".¹ Safar Kattaboyevning "Pushka" hikoyasida ham ochilmagan jinoyat tarixi qalamga olinadi. Hikoya quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

"Qo'shni Surxondaryoga xizmat safariga ketayotgan alohida muhim ishlar bo'yicha bosh tergovchi Sadridin Otayev asabiylashgancha soatiga qaradi. Roppa-rosa o'n. Termizgacha yana uch soatlik yo'l qoldi. Bugun soat beshda Respublika Prokraturasi tergov guruhi muhim operatsiyasini amalga oshirishni mo'ljallagan. Shu ketishda-ku, bemalol ulguradi. Telefon qilib bordi-mi, deb so'rasa, u yerdagilar yo'q deyishsa, yaxshi bo'lmas. Otayev mashina ro'lini tuman prokraturasi tomon burdi. Xoynahoy, tergovchi kutib turgandir, unga telefon qilishgandir. Jinoyat ishini o'rganish qancha vaqtni olar ekan. Ehtimol, bir soat, ozroq yoki ko'proq. Lekin jinoyat sodir bo'lgan joyni ko'rmasa ham bo'ladi. Har qancha fotosuratga tushirilgan bo'lmasin, chizmalar qancha aniq bo'lmasin, o'z ko'zi bilan ko'rish boshqa. Unga ham bir soat ketdi. Shunda ham voqea joyi yo'lning ustida bo'lsa.

Otayevning diqqati oshar, viloyat prokrorining "yo'l- yo'lakay tuman prokraturasiga kirib o'ting, u yerda bir haftadan beri odam o'ldirish jinoyati ochilmayapti, ochish u yoqda tursin, o'ldirilgan odam kimligi ham noma'lum, shartta ishni o'rganib, tezda tezkor- tergov rejasi tuzib ketaverasiz, qaytishda yana

¹ Safar Kattaboyev. G'alati o'g'ri. T., 2005, 115-bet.

xabarlashing”, degan gaplarini jahl bilan esladi. “Shartta o’rganib, tezda reja tuzing” emish. Go’yo gap oddiy bir arizani tekshirish ustida ketayotgandek”.¹

Otayev tuman prokraturasining tergovchisiga voqea joyini o’rgangach, quyidagi topshiriq beradi:

-Tergovchi ko’proq shaklga emas, mazmunga, mohiyatga e’tibor berishi kerak. Boshqalar ko’ra olmagan narsani ko’rgan, payqagan, sezgan odamgina tergovchi bo’la oladi. Tilxatni Alijon yozganligiga hech shubxa yo’q. Undan juda ustalik bilan yozib olishgan. Yanada aniqroq aytadigan bo’lsak, tilxatdagi bir jumla noto’g’ri ishlatilgan. Ana shu jumla bilan Bo’tayevning ko’rsatmalari to’g’ri kelmayapti va bu bilan ular o’zlari bilamagan holda o’zlarini tutib berishyapti. Men hoziroq sizga bu narsani aytishim mumkin. Ammo tayyor narsaga hech qachon o’rganmang, o’zingiz mehnat qilib, jon kuydirib, qiyinchilik bilan jinoyatni ochsangiz, uning natijasidan shunchalik huzur qilasiz. Bizning ishimizda mavhum va murakkab jinoyatni fosh qilishdek odamga yengillik baxsh etadigan tuyg’u yo’q. Ana o’shanda o’z ishingizdan qanoat hosil qilasiz. Shoshilmang, yaxshilab o’ylang, har bir so’zni tahlil qiling. Ularning joylashish o’rni, umuman, shu so’zlarning qaysisi ishlatilmasligi kerak edi, aniqlang. Alijonni esa qamoqqa olishga shoshilmang. Ikki yil o’tibdi, yana bir hafta o’tmay qolmaydi. Qaytishimda bu ishni yana bir bor muhokama qilamiz. Hozircha xayr. Muvaffaqiyat.”²

Otayev shu tariqa tergovchiga topshiriq bergach, Surxandaryoga jo’nab ketadi. Uning ko’rsatmasi bo’yicha ish tutgan tergovchi jinoyat izini topgan edi. Shunday qilib, muallif oddiy detallar orqali voqeaga oydinlik kiritadi.

Safar Kattaboyevning “Itning joyi nega o’zgardi?” detektiv hikoyasi itning doimiy turgan joyidan olib ko’chaga bog’lab qo’yilishi detail bilan bog’liq. Ma’lum bo’lishicha, shahar chetidagi qabristondan yonib ketgan mashina va uning ichida odam jasadi borligi aytiladi. Endi izkuvar

¹ Safar Kattaboyev. G’alati o’g’ri. T., 2005, 116-bet.

² O’sha joyda, 121-bet.

Otayevning oldida o'sha jinoyat tafsilotini aniqlashday mashaqqatli vazifa turar edi. Shu o'rinda biz hikoyadan parcha kelirib o'tishni lozim topdik. Boisi ularda bir-biridan qiziq detallar bor: "Otayev yaqindagina yoqqan yomg'irda yerda qolgan mashina izini fotosuratga tushirib, balon izlari chiziqlarini ko'rinishini ham yon daftarchasiga chizib oldi. Uchtasi bir xil archa bargi shaklida, to'rtinchisi kvadrat shaklida. Bu izlar ana shu mashinaniki, chunki bu yerga boshqa mashina kelmagan. Nega mashina aynan shu yerga keltirib yoqib yuborilgan? Demak, qotil shu atrofda. Ehtimol, ana shu qishloqda yashar, bu yerni bilmagan odam hech qachon mashina bilan shu yerga kirib kelmaydi. Nega? Mana nima uchun. Mashina rosa loyga botgan. Demak, qishloqdan kelgan. Shahar ichida bunchalik loyga belanish mumkin emas. Ehtimol, u o'zi shaharda ishlab, bu yerlarga kelib turar. Ehtimol, har chorshanba kuni mana shu qabristonga boshqa odamlar singari ziyoratga kelgandir. Axir, bu yerda ulug' bir avliyoning qabri bor."¹

Ko'rinib turibdiki, bu yerda mashina izi, yondirilgan mashina, mashinaning loyga botganligi kabi bir qancha detallar bor. Ular birinchidan, tergovchi uchun jinoyatni ochish uchun xizmat qilsa, ikkinchidan muallif uchun o'z g'oyasini ochish uchun yordam beradi.

Ijarachi yigitning uy egasining itini ko'chaga olib chiqib bog'laganligi tergovchiga shubha tug'diradi. So'rab –surishtirishlar oxir-oqibat o'sha itni ko'chaga chiqarib bog'lagan yigit- So'ngakovga kelib taqaladi. Otayev mashaqqatlar bilan jinoyatni fosh etib, aybdorni ashyoviy dalillar bilan aybiga iqror qildiradi. Safar Kattaboyev hikoyalaridagi bunday holatga, detalning qo'llanilishiga yana ko'plab misollar keltirib o'tishimiz mumki.

¹ Safar Kattaboyev. G'alati o'g'ri. T., 2005, 135-bet.

XULOSA

O'zbek hikoyachiligi tarixi qadimiy ildizlarga ega. Hikoyachiligimiz xalq og'zaki ijodi na'munalaridan boshlangan. Keyinchalik unga hazrat Alisher Navoiy kabi buyuk so'z allomalari ilk poydevor g'ishtlarini qo'ygan desak yanglishmagan bo'lamiz. Boisi bugun biz sevib tanlaydigan rivoyatlarimiz va ertaklaru dostonlarimizda hikoyaning bir qator elementlari bor. Hikoya o'zbek adabiyotida yangi janrdir. Jahon va rus mumtoz adublarining asarlari ham o'zbek hikoyachiligi rivojiga sezilarli hissa qo'shdi. Dastlab, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor kabi adiblarimiz o'zbek hikoyachiligi tarixini boshlab berdilar.

Turkistonda jadidchilik harakatining boshlanishi adabiyotimizga yangi janrni olib kirdi. XX asr boshlarida Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon singari tom ma'nodagi jadidlar bilan birga Komil Xorazmiy, Muqimiy, Furqat, Abay, Mulla Nafas, Zinhoriy singari ma'rifatparvar shoirlar ham ilm-ma'rifatni targ'ib qildilar. Cho'lponning "Do'xtir Muxammadyor" hikoyasi ilk o'zbek hikoyachiligining eng yorqin na'munasidir. Unda asr boshlaridagi Turkiston xalqlarining ayanchli hayoti haqqoniy tasvirlangan.

Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom va Abdulla Qahhorlar birinchi o'zbek hikoyanavislari va ayni vaqtda journalist va tarimon ham edilar. Boisi ular ko'pgina gazeta va jurnallarda ishlardilar. Bu narsa ularning yangi muhim hayotiy masalalarni ko'tarib chiqishlariga, davr sadosini, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlar mohiyatini to'g'ri tushunishga yordam ko'rsatadi. Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va G'afur G'ulomning "Mushtum" jurnalidagi faoliyatlari ularning satiric mahoratlarining o'sishi va o'tkirlashishiga yordam berdi. Bu yozuvchilarning tarjimaga katta e'tibor berishlari o'z navbatida mashhur san'atkorlaridan, ajoyib yozuvchilardan bevosita o'rganish imkoniyatini beradi.

20- yillar oxirida G'afur G'ulom "Kulgu hikoyalar", "Hikoyalar" to'plamiga kirgan 30 dan ortiq hikoya yaratdi. G'afur G'ulomning bu davr hikoyalari asosini satira va yumor tashkil etar edi. G'afur G'ulom hikoyalarida turli badiiy detallardan foydalangan holda, qiziqarli hikoyalar yaratdi. Abdulla Qahhor so'nggi nafasigacha ozodlik va mustaqillik uchun kurash olib brogan jadidlarning an'analarini o'z asarlarida aks ettirishga harakat qildi. Abdulla Qahhorning "Bemor", "O'g'ri", "Anor" kabi hikoyalari hanuz o'zining badiiy qiymatini yo'qotmagan. Abdulla Qahhorning hikoyalari sho'ro davri madaniyatining barcha xususiyatlarini o'zida aks ettirgan yorqin na'munalardir. Ular hayot va xalqning ichki- tashqi olamini qanchalar yoritildi, ular haqida qanchalar ta'lim berildi, shunga ko'ra yangi nasllarga hamroh bo'ladi. Abdulla Qahhor o'z davrining yuksak iqtidor va salohiyatga ega adibi,-deb yozadi atoqli adabiyotshunos olim Ibrohim G'afurov. "– U xalqni ma'rifatli qilish, uning umumiy madaniyatini yuqori saviyaga ko'tarish yo'lida butun adiblik talanti barobarida ter to'kdi. O'z zamonasining yetuk ziyolilaridan biriga aylandi. Xalq o'rtasida katta obro qozondi".¹

O'zbek hikoyachiligining darg'alaridan yana biri Said Ahmaddir. U hikoya qilgan voqealar zamirida toza bir gavhar tovlanayotgandek ko'rinadi. Tasvirdagi so'zlar va tasvirdagi yuraklarni shu gavhar nuri ich-ichidan yoritib turadi. Said Ahmadning "Sarob" nomli hikoyasida olim otasi va ota orqali xalqimizning insoniy udumlarga xiyonat qilgan Kimsanboy mustabid sho'ro siyosatining haddan ortiq ayanchli qurboni sifatida itdan ham battar bo'lib o'ladi. Olimjon domla qamoqda so'nggi damda o'g'lini taniydi. O'g'lining o'limi har qancha ayanchli bo'lmasin, uni kechira olmadi. Yozuvchining " Qorako'z majnun" hikoyasida begona yurtlarga ketib qolgan suyukli o'g'lini o'ttiz yildan beri kutayotgan kampir Saodat aya.... O'g'li bo'yniga but taqib kelganda Saodat ayaning qanday holga tushganligini tushunish mumkin. Ona o'g'lining bu g'arib ahvolini kechirmaydi.

Abdulla Qahhor va Said Ahmadlarning romanchilik, hikoyachilik, hajvchilik maktabidan Xudoyberdi To'xtaboyev, O'tkir Xoshimov, Ne'mat Aminov, Xayriddin Sultonov, Erkin A'zam va yana boshqa ko'plab shoirona yorqin so'zli yozuvchilar yetishib chiqdilar.

Istiqlol davri hikoyachiligi haqida gap ketganda, birinchi navbatda badiiy detallar ustasi bo'lgan Shukur Xolmirzayev hikoyalarini tilga olmay bo'lmaydi. Yozuvchining 45 yillik ijodiy faoliyatida yaratgan hikoyalari o'zbek nasrining chinakam durdonalari, o'lmas ma'naviy mulki bo'lib qoldi. Milliy adabiyotimizning haqiqiy fidoiysi bo'lmish taniqli adib Shukur Xolmirzayev adabiyotimizda o'ziga xos maktab yaratdi.

Biz tadqiqotimizda Shukur Xolmirzayevning "O'zbek bobo", "To'p o'yin", "Bandi burgut" kabi bir qator hikoyalarini tahlilga tortik va ularda Shukur Xolmirzayevning detallarni qo'llash uslubi bilan bog'liq masalalarga to'xtalib o'tdik. Yozuvchi har bir hikoyasining qiziqarli, ta'sirchan bo'lishi uchun detallarni o'z o'rnida qo'llagani va ularni o'zbekona xarakterini ochib berishga xizmat qildirganligini ko'rib chiqdik. Shu bilan birga adib detallarni dalillash, ishontirishda eng kuchli va samarali vosita ekanligini amalda isbotlab bergan. O'zining dastlabki "Boboyong'oq" hikoyasi bilan el og'ziga tushgan, hatto Abdulla Qahhordek hassos yozuvchi nazariga tushgan O'lmas Umarbekov ham istiqlol davri hikoyachiligida o'ziga xos iz qoldirgan. Yozuvchi hikoyalari mavzu jihatdan keng va ko'p qatlamli. Yozuvchi ayrim hikoyalarida yoshlar taqdiri, muhabbat mojarosi ishqiy tuyg'ulari ifodalansa, ayrim hollarda urush va uning o'lmas jaroxatlari saboqlari umumlashtiriladi. Yana bir turkum hikoyalarida bulg'ar xalq qahramonligi ulug'lansa, yana bir turkum hikoyalarida tabiat va inson taqdiri va ekologik muommolar detallar yordamida o'z badiiy yechimini topadi. Adib hikoyalari orasida "Otalar va bolalar" muommosiga bag'ishlangan asarlar anchagina bo'lib, unda meros va vorislik an'analariga urg'u beriladi. O'lmas Umarbekov hikoyalari qaysi mavzu, qanday muommoni detallar yordamida badiiy hal etmasin, ularda ma'naviy-axloqiy muommo bir

butunlikni, izchilikni keltirib chiqaradi. Buni O'lmas Umarbekovni "Shirinsoy oqshomlari", "Yulduzlar", "Hayot qo'shig'i", "Abdulla qovunchi", "Oltin yaproqlar", "Charos", "Bahor nafasi" kabi uni mashhur qilgan hikoyalari misolidagina emas, balki yozuvchi mustaqillik davrida yaratgan "Ota va o'g'il", "Mehmondorchilik", "Isiriq", "Hotamtoy", "Oqsoqol", "Olamushuk", "Mening o'g'ilbola jiyanim" kabi o'nlab hikoyalarda ham ko'rish mumkin. Bular ichida adibning "Hotamtoy" hikoyasida keltirilgan qizil palto va qizil etik detali ayniqsa xarakterlidir. Bu detallar qahramonlar harakterini, xalqimizning saxovatpeshaligini ifodalovchi bir vosita sifatida asarda katta ro'l o'ynagan. Mashhur so'z ustalari detallar haqqoniyligiga g'oyat jiddiy e'tibor berganlar. Realizm tadqiqotlaridan biri S.M.Petrov "detallar haqqoniyligi badiiy forma masalasini hal etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgani holda unga hozirga qadar yetarli ahamiyat berilmayotganligiga taassuf bildiradi".¹

Buyuk so'z san'atkorlari izidan brogan bir qator ijodkorlar yangi-yangi asarlar yaratdilar. Istiqlol yillarida Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Xoshimov, Omon Muxtor, Xurshid Do'stmuhammad, Asad Dilmurod, Tog'ay Murod, Jamila Ergasheva singari turli avlodga mansub ijodkorlar o'ziga xos yo'sinda qalam tebratib, milliy prozimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdilar. Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, Mehriniso Qurbonova, Nargiza G'ulomova, Uyg'un Ro'ziyev, Safar Kattaboyev singari ijodkorlar ham salmoqli ijod qildilar.

Hikoyalarni tahlil etish jarayonida hikoyalarda detallar haqqoniy bo'lmasa, ularda tasvirlanayotgan hodisaning, harakterning mohiyatiga uzukka ko'z qo'yganday tabiiy, mos tushmasa, asar g'oyaviy- badiiy jihatdan bo'sh bo'lib qolishiga yana bir ishonch hosil qildik. Biz o'z tadqiqotimizda ulkan san'atkor Abdulla Qahhorning uslubini tayin etishda kichik qism detalning katta xizmatini tahlil qilarkanmiz, adibning so'z san'atkori, detallar ishlatishning ajoyib ustasi ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tishni lozim topdik.

Xullas, ustoz adiblar va istiqlol davri hikoyachiligida o'ziga xos hikoyalar yaratgan ijodkorlarning hikoyalaridan shunga ishonch hosil qildikki, badiiy detallar qudratli kuchga egadir. Xulosa qilib aytganda, har bir hikoyanavis badiiy detalning sehrli kuch-quvvatidan, katta imkoniyatlaridan g'oyat mohirona foydalangan holda o'qimishli va ta'sirchan hikoyalar yaratishga harakat qilganlar.

Boshqacha qilib aytganda, badiiy detalsiz hikoyalarning o'zi ham yaratilmagan bo'lardi, albatta. Zero, Turgenov ta'biri bilan aytganda "Iste'dod va boringki, hatto ijod degani eng xarakterli detallar topib ishlatishdir".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q "Muloqot", 1998, 5-son 19-6et.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. –T., "Ma'naviyat", 2008-133-134 bet.
3. Karimov Naim XX asr adabiyoti manzaralari . –T., "O'zbekiston" 2008-12 bet.
4. Владимирова. Н.В, Sultonova.M. O'zbek hikoyanavisligining ba'zi masalalari/ Zamonaviylik va badiiy mahorat. T., Fan, 1961,61-bet.
5. Qahhor.A. Usta san'atkor "Sharq yulduzi", 1952, 3-son. 45-6et
6. I.G'afurov Mangu latofat.-T-. "Sharq", 2008.
7. Shayxzoda.M. Ustozning san'atxonasida./"Sharq yulduzi", 1960 5-son.
8. Bobur.Z.M. Asarlar. Uch jildlik. I jild. Boburnoma. T.1965.
9. Umirov.S San'atning sehrli kaliti. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashryoti, 1974.
10. Xolmirzayev. Shukur Saylanma. III jild.T. "Sharq", 2006.
11. A'zam. Erkin Pakananing oshiq ko'ngli. Qissa va hikoyalar. -T., "Ma'naviyat", 2001.
12. Umarbekov. O'lmas Tanlangan asarlar. III jildlik, I jild. -T. "Sharq", 2002.
13. O'sanboyeva. Nargiza Ishq va anduh og'ushida. Qissa va hikoyalar. -T. "Yangi asr avlodi", 2013.
14. Ro'ziyev. Uyg'un Tongda qaytgan kaptarlar. -T. "O'zbekiston", 2011.
15. Kattaboyev. Safar G'alati o'g'ri .-T. 2005.